

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

NAVRUZOVA MUYASSAR GAYBULLAYEVNA

TIBBIY BIRLIKLARNING LEKSIKOGRAFIK TADQIQI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Filologiya fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора наук (DSc) по филологическим наукам

Content of dissertation abstract of Doctor of Science (DSc) on philological sciences

Navruzova Muyassar Gaybullayevna

Tibbiy birliklarning leksikografik tadqiqi.....3

Наврузова Муяссар Гайбуллаевна

Лексикографическое исследование медицинских единиц35

Navruzova Muyassar Gaybullayevna

Lexicographic study of medical units71

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 76

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

NAVRUZOVA MUYASSAR GAYBULLAYEVNA

TIBBIY BIRLIKLARNING LEKSIKOGRAFIK TADQIQI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.1.DSc/Fil 746 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Buxoro davlat universiteti veb-sahifasining (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalining (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

G'aybullayeva Nafisa Izatullayevna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Jabborov Xo'jamurod Jabborovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Hamroyeva Hulkar Hamidullayevna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedova Dildora Bahodirovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi ilmiy tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil « 24 » mart soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 221-29-14; faks: (+99865) 221-29-14; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (838 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 221-29-14; faks: (+99865) 221-29-14; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil « 5 » mart da tarqatildi.

(2026-yil « 5 » mart dagi 4 -raqamli reyestr bayonnomasi)



B.E. Kilihev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.G' Davronova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.K. Abuzalova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ayni kunlarda tibbiyot va lingvistikaning integratsiyalashuvi zamonaviy fanlararo yondashuvning rivojlanishiga, inson va jamiyat salomatligining har tomonlama mustahkamlanishiga, tibbiy tushunchalarning lisoniy, psixolingvistik, lingvomadaniy, leksikografik jihatlarini o'rganishga intilish kuchaymoqda. Tibbiy birliklar inson hayotining fundamental xususiyatlari bilan bog'liq ekan, bu nafaqat tibbiyot, balki falsafa, sotsiologiya, antropologiya, shuningdek, xalq madaniyati bilan tutash o'rganiladi. Kognitiv yondashuv tibbiy terminlarni o'rganishda inson tafakkuri, emotsional reaksiyalari, madaniy bilimlari va idrok usullarini hisobga olgan holda, ularning chuqur ma'no qatlamlarini ochib berish, tibbiy terminlarning mavhumlik darajasi, asosiy va periferik komponentlari, metaforalari, semantizatsiyasi bilan bog'liq tushunchalari neolingvistik aspektida, o'zaro bog'lanishda ular munosabatlarining turli ilmiy yondashuvlar asosida o'rganilishi dolzarblik kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida milliy sohaga oid zamonaviy lug'atlarni tuzish eng muhim vazifalardan biriga aylandi. Bu borada tadqiqotlar, asosan, ikki yo'nalishda olib borilmoqda: tilning lug'atini tahlil qilish asosida ma'lum bir etnik guruhga xos tasavvurlar yaxlit tizimi tadqiq etiladi yoki lingvistik jihatdan o'ziga xos termin sifatida ifodalanishi mumkin bo'lgan leksika birliklari aniqlanadi va o'rganiladi. Mazkur tadqiqot ham ushbu yo'nalishga tegishli bo'lib, o'zbek tili tibbiy birliklarinig struktural, leksik-semantik, leksikografik tavsifini berish orqali muammoning nazariy jihatlarini to'liq asoslash, tibbiy terminlar lug'atini nafaqat ilmiy izchillik asosida tuzishga, balki ularni amaliy ijtimoiy, tibbiy faoliyatda, ta'limda va xalqaro hamkorlikda samarali qo'llash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan til siyosati, davlat tilini rivojlantirish, davlat tilida ish yuritish tizimini takomillashtirish, milliy til negizidagi terminlarni tatbiq etish, xorijiy til terminlarining o'zbekcha muqobilini shakllantirish uchun imkoniyat yaratdi va shunga mos ravishda bir qator vazifalarni ham belgilab berdi. Xususan, "...mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalorida, jumladan, davlat boshqaruvi, zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, sanoat, bank-moliya tizimi, huquqshunoslik, diplomatiya, harbiy ish, tibbiyot va boshqa sohalarda davlat tilining imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishish"¹ vazifasi belgilandi. Ilmiy asoslangan yangi so'z va terminlarni iste'molga kiritish, zamonaviy terminlarning o'zbekcha muqobillarini yaratish va bir xilda qo'llanishini ta'minlash, mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohaları qatorida tibbiyot sohasiga ham ilg'or axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, soha lug'atlarini yaratish, zamonaviy tibbiy axborot tizimlari, elektron sog'liqni saqlash platformalarini yaratish vazifalari qo'yildi. Mazkur tadqiqot leksikografiya tizimiga tibbiy birliklarni tatbiq etish, o'zbek tilidagi tibbiy terminlar bazasining lingvistik ta'minotini yaratish, tibbiy birliklarni semantik maydon va soha lug'atlari asosida tahlil qilishni ko'zda tutadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi"gi PF – 5850-sonli Farmoni. Xalq so'zi // 2019-yil, 22-oktabr, 218-son.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son, 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son, 2023-yil 12-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2789-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 984-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi².

Tibbiy birliklarning lingvistik tavsifi ularning tarkibiy tuzilmasi, semantik mazmuni, qo‘llanilish uslubi va kommunikativ funksiyalarini yoritish, lug‘atlar tuzishni o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar dunyo tilshunosligida Cambridge University, University of Oxford, Edinburgh University, London Metropolitan University (Buyuk Britaniya), Harvard Universitylarda, New York University, Chicago University, American Academy of Art and Sciences (AQSH), Toronto University (Kanada), Hankuk University of Foreign Studies (Koreya), Maribora universiteti (Sloveniya), University of Humboldt (Germaniya), The French National Research Agency (Fransiya) M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya), Sankt-Peterburg universiteti (Rossiya), Tatariston Kazan federal universiteti (Rossiya), Qozoq milliy universiteti (Qozog‘iston), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zRFA til, adabiyot va folklor ilmiy-tadqiqot instituti, Farg‘ona davlat universiteti, Andijon davlat universiteti (O‘zbekiston)da olib borilmoqda.

Dissertatsiya mavzusi yo‘nalishida quyidagi ilmiy natijalarga erishilgan: tibbiy terminlarning morfologik tuzilmasi va ular asosida shakllangan metaforalarning o‘ziga xos xususiyatlari, kasallikning nominativ birliklari, tibbiyotda abbreviaturalar yoritilgan (Rossiya, AQSH); tibbiy matnlar, ularning sintaktik tuzilishi va pragmatik, kognitiv strategiyalari masalasi aniqlangan (Niderlandiya va AQSH); tibbiyot tilning o‘ziga xos xususiyatlari, uning strukturaviy, semantik, pragmatik

²Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi [google.scholar.com.](https://scholar.google.com/); americanenglish.state.gov; micros.uz; www.uv.es; www.zora.uzh.ch; cleo@snu.ac.kr; [www.u-tokyo.ac.jp.en](https://www.u-tokyo.ac.jp/en/); www.ras.ru; adwww.ecu.edu.au; unice.fr/en; www.sophia.ac.jp/eng; www.msu.ru; www.vsu.bu; www.education.ua/universities; www.kaznu.kz; Содержание понятия языковая картина мира в лингвистике - КОАПИЯ статьи - Каталог статей - КОАПИЯ. koariya.do.am. Murojaat sanasi:30.04. 2023. va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

hamda kognitiv jihatlari, badiiy asarlarda qoʻllanilgan tushunchalarining oʻziga xosligi ochib berilgan (Rossiya, Germaniya); sohaviy terminologiya, lugʻaviy birliklarning tizimli tahlili, kasallik va salomatlikka oid, anatomik, farmatsevtik, terapevtik lugʻatlarda birliklarning ahamiyati milliy-madaniy vositalar asosida aniqlangan (MDH).

Dunyo tilshunosligida tibbiy terminologiya boʻyicha lugʻatlar yaratish jarayoni koʻplab xorijiy olimlar tomonidan lingvistik, sotsiokognitiv, informatsion va madaniy yondashuvlar asosida oʻrganilgan. Tibbiy lugʻatchilikda atamalarni tizimlashtirish, ularni strukturaviy, semantik, uslubiy, tarjima va madaniy jihatdan aniqlashtirish jarayonning oʻziga xos ekanligini ochib berish boʻyicha qator, ustuvor yoʻnalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Dunyo tilshunosligida terminlarni tizimlashtirish va lingvistik aspektda tadqiq qilishga bagʻishlangan ishlar amalga oshirilgan³. Tibbiy terminologiyaga oid eng qadimgi manba Abu Ali Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari hisoblanadi⁴. Abu Bakr Ar-Roziy⁵, Mahmud Koshgʻariy⁶ kabi qomusiy olimlar tibbiy terminlarning ilk tadqiqotchilari hisoblanadi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida mashhur tarixiy shaxslar hayoti bilan bogʻliq tibbiy terminlar va kasalliklar haqida mulohazalar kuzatiladi. Tibbiyot terminologiyasi tadqiqining nazariy asoslarini belgilashda M.Chernyavskiy, Y.Neyfax, S.Velichkova, M.Oznigin, Y.Plotskaya⁷ izlanishlari ahamiyatlidir. Turkologiya sohasida ham terminlar taraqqiyotiga bagʻishlangan izlanishlar mavjud⁸. Tibbiyotga doir terminlar ham oʻrganilgan⁹. Oʻzbek terminologiyasi taraqqiyotining ilmiy-nazariy masalalari va lugʻavy birliklar tahlilida tizimli yondashuv tamoyillari S.Ibrohimov, X.Djamalxanov, S.Usmonov, S.Ashirboyev, A.Madvaliyev, R.Doniyorov, H.Dadaboyev, R.Rasulov, A.Nurmonov, H.Neʼmatov, R.Safarova, Sh.Iskandarova, A.Sobirov, I.Ermatov tadqiqotlarida yoritilgan¹⁰.

³ Лотте Д.С. Образование и правописание трёх элементарных научно-технических терминов. – М., 1969; –С. 67. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М., 1977. –С. 123; Гринёв С.В. Введение в терминологическую лексикографию (учебное пособие). – М., 1986. – С. 43;

⁴ Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. V kitob. – Т., 1992.- В.376.

⁵ Abu Bakr Ar-Roziy. Kasalliklar tarixi. –Т., Xalq merosi, 1994. - В. 72.

⁶ Koshgʻariy Mahmud. Devonu lugʻotit turk. I tom. - Т., 1960. – 250. b.; II tom. -Т. 1961. -214. b.; III tom- Т., 1963. – 257.

⁷ Чернявский М.Н. О состоянии древнегреческой фармацевтической терминологии по трудам Гиппократ. Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1996. – С. 89; Нейфах Е.Б. О немецкой фармацевтической терминологии. Дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 1996; Величкова С.М. Структурно-семантические особенности медицинской терминологии в сфере стоматологии (на материале русского и немецкого языков). Дисс. канд. филол. наук. – М., 2006. – С. 165.; Ознигин М.В. Роль метафоры в структурировании и функционировании русской медицинской терминологии. Дисс. канд. филол. наук. – Саратов, 2010.- С.152.; Плоцкая Ю.В. Структурно-семантические особенности немецкой стоматологической терминологии. Дисс. ... канд. филол.наук. – М., 2020.

⁸ Молдажаров Ж.М. Становление и развитие казахской лингвистической терминологии. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Алма-ата, 1971. –С. 22.; Филющина В.Н. К истории формирования туркменской лингвистической терминологии. Автореф. Дисс.канд. филол. наук. – Ашхабад, 1973.-С. 22.; Пирниязов К.Формирование и развитие каракалпакской лингвистической терминологии. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Алма-ата, 1981.-С. 28 .

⁹ Bazarova D.X. Semantika naimenovaniy chastey tela v tyurkskix yazykax. Diss. kand. filol. nauk. – М., 1967.-С.65.

¹⁰ Ibrohimov S. Fargʻona shevalarining kasb-hunar leksikasi. – Т.: OʻzFA, 1956. I. – 144 b.; Djamalxanov X. Iz istorii formirovaniya i razvitiya uzbekskoy botanicheskoy terminologii: Avtoref. diss. kand. filol.nauk. – Т., 1966; Usmonov S. Oʻzbek terminologiyasining baʼzi masalalari. – Т.: Oʻqituvchi, 1968; Ashirboyev S. Oʻzbek tili grammatik

O‘zbek tilshunosligida hozirgacha terminologiya masalalariga bag‘ishlangan qirqdan ortiq doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi, yuzga yaqin terminologik lug‘atlar chop etildi¹¹. O‘zbek tilshunoslaridan M.Q.Abuzalova, N.I.G‘aybullayeva, A.B.Qobilova, D.R.Sobirova, F.I.Abdulxairova, G.Roziqova, M.G.Navro‘zova tadqiqotlarida tibbiy birliklarning lingvistik xususiyatlari, qiyosiy tahlillari lingvokulturologik aspektida o‘rganilgan¹².

Ammo o‘zbek tilida tibbiy birliklarning leksikografik tadqiqi amalga oshirilmaganligi bois mazkur muammo tadqiqi olib chiqilmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq (2023-2026-yy.) mo‘ljallangan “O‘zbek tilshunosligida til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tibbiy birliklar va ularning tibbiyotga oid turli tipdagi lug‘atlarda talqin qilish masalalaridan iborat.

qurilishining o‘rganilish tarixidan (1875-1917 yillardagi rus turkologlarining asarlari asosida) Fil.fan.nomz...diss.. – T., 1972. – B.85; Madvaliyev. A.P. Узбекская химическая терминология и вопросы её нормализации. Автореф канд. филол. наук. – Т., 1986; Данияров Р. Техническая терминология узбекского языка на современном этапе: Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Т., 1987; Дадабаев Х.А. Военная лексика в староузбекском языке. Дисс ... канд. филол. наук. – Т., 1981. – 186.; Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI – XIV вв. – Т.: Фан, 1991. С – 168.; Dadaboyev H.A. O‘zbek terminologiyasi. (O‘quv qo‘llanma). – Т.: Nodirabegim, 2020; Dadaboyev H., Yodgorov H. O‘zbek harbiy terminologiyasi. – Т., 2021.55.-70.b Rasulov R. O‘zbek tilidagi holat fe‘llari va ularning obligator valentliklari. – Т., 1989; Nurmonov A. Lisoniy belgi xususiyatlari haqida. – Andijon, 1992; Ne‘matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Т.: O‘qituvchi, 1995. – 128 b.; Safarova R. Leksik-semantik munosabatning turlari. – Т.: O‘qituvchi, 1996.– 48 b.; Iskandarova Sh. O‘zbek tili leksikasini mazmuniy maydon asosida o‘rganish (shaxs mikromaydoni). Filol. fan. dok. ... diss. – Т., 1999; Sobirov A. O‘zbek tilining leksik sathini sistema sifatida tadqiq etish. Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Т., 2005. – 50 b.; Ermatov I.R. O‘zbek tilshunoslik terminlarining shakllanishi va taraqqiyoti (umumiy o‘rta ta’lim maktablarining darsliklari asosida). Filol. fan. fals. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Т., 2019. – 25 b.; shu muallif. Terminologiya tizimida gipero-giponimik va ekvonomik munosabatlar (tilshunoslik terminlari misolida). Filol. fan. dok. (DSc) ... diss. avtoref. – Т., 2022.

¹¹ G‘ulomova G.Yo. O‘zbek yuridik terminologiyasining istiqbol davri taraqqiyoti. Filol. fan. nomz. diss.avtoref. – Т., 2005; Tursunova O.F. Tarixiy manbalarda huquq terminlarining qo‘llanishi. Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Т., 2009; Mirzaxmedova H.V. Fors tili transport terminlarining struktur qatlamlari va yasalish usullari. Filol. fan. fals. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Т., 2017; Ergasheva G.I. Turli tizimdagi tillarda genderga oid terminologiyaning shakllanishida lingvistik va ekstralingvistik omillar. Filol. fan. dok. (DSc)... diss. avtoref. – Т., 2018; Sabirova E.Sh. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da huquqiy terminlarning berilishi. Filol. fan. fals. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Т., 2022; Султонова Л.А. Медицинская терминология китайского языка (на примере хирургических терминов). Дисс. ... док. филос. (PhD) по филол. наук. – Т., 2022; Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Т.: O‘ME, 2002; Yuridik atamalar qomusiy lug‘ati. – Т.: Sharq, 2003. – B. 432; Dadaboyev H. Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati. – Т.: 2008.

¹²Абузалова М. Peculiarities Of The Integration Of Linguistics And Medicine. Journal of Contemporary Issues in Business and Government (Web of scientist). https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4683; Abuzalova M. Lingvistika va tibbiyot hamkorligi ijtimoiy zarurat sifatida. Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Buxoro, 10-noyabr, 2021.17-22 b.; G‘aybullayeva N. O‘zbek tili tibbiy evfemizmlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Buxoro: Durdona, 2021. – 71 b.; Qobilova A. Tibbiy matnlarda qo‘llaniladigan perifrastalar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari (ingliz va o‘zbek tillari misolida) France <https://conferencepublication.com> February 27th 2021; Sobirova D. Tibbiy reklama matnlarini yaratish usullari. – Buxoro: Durdona, 2021. – 73 b.; Abdulxairova F.I. O‘zbek tilida tibbiyot atamalarining metaforik manzarasi: Filol. fan. b. f. d-ri (PhD) diss. – Toshkent, 2021. – B.23; Roziqova G. Mahmud Koshg‘ariy “Devon”ida qo‘llangan tibbiyotga doir so‘z va atamalarining leksik-semantik tahlili. / Xorazm ma‘mun akademiyasi axborotnomasi. 2020.-№9.-187-191; Navro‘zova M. O‘zbek folklori tilida tibbiy birliklarning etnolingvistik va lingvopoetik ifoda xususiyatlari: Filol. fan. b. f. d-ri diss. – Buxoro, 2023. – 142 b.

Tadqiqotning vazifalari. Qo'yilgan maqsad bilan bog'liq ravishda quyidagi vazifalar belgilandi:

tadqiqotning lingvistik asoslari bilan bog'liq tushunchalarni sharhlash;

tibbiy terminlarning sinonimiyasi, antonimiyasi, polisemiyasi va omonimiyasini asosiy turlarini izohlash, leksikografik nuqtayi nazardan o'rganish;

xalqaro tibbiy terminlarning o'zbek tiliga moslashuvi va ularning lug'atlarda aks etish xususiyatlarini tahlil qilish;

tibbiy birliklar hosil qilishning affiksial, kompozitsion, morfologik-sintaktik funksiyalarini hamda abbreviaturalar, eponimik terminlar yasalishini tavsiflash;

tibbiy birliklar lug'ati tuzilishining asosiy tamoyillarini belgilash va izohli lug'atlarda berilishini semantik guruhlarini shakllantirish;

tadqiqot natijalari asosida tibbiy birliklarning mukammal lug'at modelini ishlab chiqish hamda namunaviy lug'at maqolalarini taklif etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida tibbiyot sohasiga oid bo'lgan leksik birliklar, ya'ni terminlar, iboralar, atamalar, abbreviaturalar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o'zbek tilidagi tibbiy birliklarning tizim sifatidagi belgilari, tibbiy terminlar o'rtasidagi leksik-semantik munosabatlar, leksikografik xususiyatlarini o'rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Ishda qiyoslash, tasniflash, leksikografik, komponent, kontekstual, statistik va konseptual tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

termin-atama-tushuncha istilohlarining o'xshash va farqli tomonlari, tibbiy birliklarni o'zbek tilida paydo bo'lish davridan to hozirgi kunga qadar tadrijiy rivojlanish qonuniyatlari, boshqa tillar bilan munosabati va bu jarayonlarga bevosita ta'sir o'tkazgan olimlar asarlari, lug'atlardan foydalanilgan; anatomik; klinik; farmatsevtik birliklarning xususiyatlari aniqlangan;

o'zbek tilida tibbiy birliklarning shakllanishi, taraqqiyot usuli, terminlashishida tizimlilik, izchillik, polifunksionallik, o'z terminologik maydonidagi monosemiklikka moyillik, ekpressiya, stilistik betaraflik xususiyatlari hamda affiksatsiya, kompozitsiya, abbreviaturalar o'zlashmalar orqali derivatsion mazmun kasb etishi aniqlangan;

tibbiy birliklarni boyishida so'z o'zlashtirish, internatsional leksika, tibbiy metafora, tibbiy metonimiya, tibbiy eponim, tibbiy ko'chimlar, tibbiy toponimlar ular leksik-semantik maydonini hosil qilishda, denotat yoki signifikat semalari orqali ma'no kengayishi yoki torayishi, omonimiya, sinonimiya, antonimiya kabi paradigmatic munosabatlar isbotlangan;

tibbiy terminlar tizimining sinonimiya hodisasida ekvivalent sinonimlar samaradorligi aniqlanib, boshqa tilda tasniflangan ekvivalent (sifat+ot) atamali tarkib bo'lsa, o'zbek tilida (ot+fe'l) birikmasi unumdorligi hamda ularning almashtirish "bir xil leksemalarning takrorlanishi" aniqlashtirish (ma'lumotni aniq yetkazish), stilistik (aniqligi va neytralligi) ekspressivlik (uslubiy bo'yoqdorlik) funksiyalari dalillangan;

o'zbek tili tibbiy birliklarida lotin, yunon, fransuz, nemis, italyan kabi tillardan olingan so'zlarning o'zbek tilida termin sifatida qo'llanishi, 5 jildli O'TILda berilgan tibbiyotga oid birliklarning genetik tahlilida o'z qatlam terminlari – 14%;

arab: 2%; fors: 1,4%; lotin: 13,2%; yunon: 37,6%; ingliz: 1,4%; fransuz: 1,8%; italyan: 0,4%; nemis: 1,07%; rus: 0,7%; qismlaridan biri boshqa, ikkinchisi boshqa tilga oid murakkab genetik xususiyatga ega birliklar: 4,7%.ni tashkil qilganligi asoslanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, nazariy ma'lumotlarni berishda ilmiy manbalarga tayanilganligi, xulosalarning zamonaviy lingvistik tahlil metodlari orqali asoslanganligi, nazariy qarashlar va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, mavzuning jahon tilshunosligi ustuvor ilmiy konsepsiyalari asosida o'rganilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan ilmiy xulosalar va muhim nazariy umumlashmalardan terminologiya va leksikografiyani o'rganishda, turli milliy tillarning madaniy-maishiy mazmunini tahlil qilish, lisoniy ong va til tashuvchisi kabi masalalar psixolingvistika, kognitologiya, pragmalingvistikaning rivojiga muayyan darajada hissa qo'shishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati xulosalar va tadqiqot materiallaridan oliy ta'lim muassasalarining filologiya fakultetlarida hozirgi o'zbek adabiy tili, matn tahlili, nazariy tilshunoslik masalalari, lingvokulturologiya, psixolingvistika, sotsiolingvistika, pragmalingvistika fanlaridan darslik va o'quv qo'llanmalari yaratishda; ma'ruza, amaliy hamda seminar mashg'ulotlari, maxsus kurslar o'tishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tibbiy birliklarni o'rganish bo'yicha olingan natijalar asosida:

termin-atama-tushuncha istilohlarining o'xshash va farqli tomonlari, tibbiy birliklarni o'zbek tilida paydo bo'lish davridan to hozirgi kunga qadar tadrijiy rivojlanish qonuniyatlari, boshqa tillar bilan munosabati va bu jarayonlarga bevosita ta'sir o'tkazgan buyuk mutafakkirlarimiz asarlari, lug'atlardan foydalanilgan anatomik; klinik; farmatsevtik birliklarning xususiyatlariga oid xulosalardan FZ-2019081773 raqamli "O'zbek milliy raqs san'atini targ'ib etishga bag'ishlangan veb-sayt va multimediya mahsulotlari to'plamini (elektron lug'atlar) yaratish" mavzusidagi fundamental loyihada dissertatsiya ilmiy natijalaridan (2021-2023-yy) foydalanilgan (O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2025-yil 3-iyundagi 01/04-243-sonli ma'lumotnomasi). Natijada elektron lug'atlar yaratishda dissertatsiya xulosalariga tayanilgan;

o'zbek tilida tibbiy birliklarning shakllanishi, taraqqiyot usuli, terminlashishida tizimlilik, izchillik, polifunksionallik, o'z terminologik maydonidagi monosemiklikka moyillik, ekpressiya, stilistik betaraflik xususiyatlari hamda affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya, abbreviaturalar o'zlashmalar orqali derivatsion mazmun kasb etishiga oid xulosalardan PZ-202005236-raqamli "Oila psixologiyasi fanidan multimediya mahsulotini yaratish" mavzusidagi innovatsion-tadqiqot loyihani amalga oshirishda dissertatsiya ilmiy natijalaridan (2021-2022-yy) foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2025-yil 2-iyuldagi 01-4230 sonli ma'lumotnomasi). Natijada oilada salomatlikni rivojlantirishda psixologik tamoyillar ishlab chiqilgan;

tibbiy birliklarni boyishida soʻz oʻzlashtirish, internatsional leksika, tibbiy metafora, tibbiy metonimiya, tibbiy eponim, tibbiy koʻchimlar, tibbiy toponimlar ular leksik-semantik maydonini hosil qilishda, denotat yoki signifikat semalari orqali maʼno kengayishi yoki torayishi, omonimiya, sinonimiya, antonimiya kabi paradigmatic munosabatlarga oid olingan ilmiy natijalardan 2024-2025-yillarda OʻZMTRK “Oʻzbekiston” teleradiokanalining “Bedorlik”, “Ijod zavqi”, “Taʼlim va taraqqiyot”, “Millat va maʼnaviyat” eshittirishlarining ssenariysini yozishda foydalanilgan va muallif bilan suhbatlar uyushtirilgan (Oʻzbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Oʻzbekiston teleradiokanali davlat muassasasi”ning 2025-yil 13-iyundagi 26-36-1006-sonli maʼlumotnomasi). Natijada tibbiy madaniyat bilan bogʻliq leksik tizim shakllanishiga manba boʻlgan;

“tibbiy terminlar tizimining sinonimiya hodisasida ekvivalent sinonimlar samaradorligi aniqlanib, boshqa tilda tasniflangan ekvivalent (sifat+ot) atamali tarkib boʻlsa, oʻzbek tilida (ot+feʼl) birikmasi unumdorligi hamda ularning almashtirish “bir xil leksemalarning takrorlanishi” aniqlashtirish (maʼlumotni aniq yetkazish), stilistik (aniqligi va neytralligi) ekspressivlik (uslubiy boʻyoqdorlik) funksiyalari Oliy taʼlimning “Tabiiy fanlar: matematika va statistika” taʼlimi yoʻnalishida tahsil oluvchi talabalar uchun yaratilgan “Oʻzbek tilini sohada qoʻllanilishi” nomli darsligida foydalanilgan (Oliy va oʻrta maxsus taʼlimi vazirligining 2023-yil 29-sentabrdagi 438-sonli buyruq, 438477-raqamli nashr ruxsatnomasi, Buxoro davlat universitetining 2025-yil 2-iyuldagi 01-4221 sonli maʼlumotnomasi). Natijada leksikologiya va morfologiya oid mashqlar bajarishda kodlar bilan oʻquv adabiyotlar takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjuman va seminarda, jumladan, 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida aprobatsiyadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 30 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 ta monografiya, 1 ta lugʻat, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola (shu jumladan, 10 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, toʻrt bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat. Umumiy hajmi 258 sahifa.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Tibbiy terminologiyaning nazariy asoslari va metodologiyasi**” deb nomlanib, toʻrt boʻlimdan iborat. Bobning birinchi “*Termin – tilshunoslikning tadqiqot obyekti sifatida*” boʻlimida maxsus leksika, terminologik leksika; termin, atama, istiloh; professionalizm, kasb-hunar soʻzlari, kasb-hunar leksikasi, professional leksika, sohaviy leksika, dialektal terminologik leksika birliklarining yuzaga kelish omillari, tarixi, shakllanish va takomil masalalari oʻrganildi. Terminologiya yoʻnalishlari boʻyicha qilingan ilmiy tadqiqotlar izohlanib, nazariy bilimlar umumlashtirildi.

Tadqiqotimiz obyekti sanalgan tibbiy terminlar tibbiy xodimlar nutqida qo'llaniladigan, tibbiy adabiyotlar, tibbiy lug'atlardan tanlab olingan maxsus leksikani tashkil qiladi. Terminologiya va umumiste'mol leksika o'rtasidagi chegara unchalik sezilmaydi. Shuning uchun maxsus leksikani uch guruhga bo'lish mumkin: umumiy atamalar, maxsus keng atamalar, maxsus tor atamalar.

Tibbiyot leksikasida, terminologik leksika tarkibiga kiruvchi, ammo termin bo'lmagan so'zlarning alohida guruhini ta'kidlash kerak. Bular suvchechak, sariq kasali, qoqshol kasalligi, zotiljam, qizamiq kasalligi kabi kasalliklarning nomlaridir. Ushbu nominatsiyalar aynan professional sohaga tegishli emas, ammo tibbiy terminologiya ichiga kiradi.

Tadqiqotchilarning ilmiy ma'lumotlariga ko'ra, zamonaviy lug'atlarda paydo bo'layotgan yangi so'zlarning 90 foizdan ortig'ini maxsus leksika tashkil etadi. Shuning uchun ham maxsus leksikaning terminologik tizimlar bilan bog'liqligi ko'plab taniqli tilshunoslarning tadqiqot obyekti bo'lgan.

Tilshunoslikda ma'lum tushunchalarni ifodalovchi umumiy va maxsus terminlar, termin va atama yuzasidagi qarashlar olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Terminga qo'yiladigan talablar, terminning xususiyatlari, undagi ko'p ma'nolilikni ifodalash jihatlari, terminologik birliklarda sinonimlar, antonimlarning mavjudligi, so'z birikmalari, shuningdek, turli xil so'zlar bilan ifodalanishi mumkin. Ammo yuqoridagi masalalar yuzasidan lingvistikada yaxlit xulosaga kelinmagan va olimlarning qarashlarida farqliliklar ko'zga tashlanadi. Terminlar haqida berilgan barcha ta'riflarga tayangan holda biz o'z tadqiqotimizda termin ma'lum bir terminosistemaning a'zosi bo'lgan va ta'rifni talab qiladigan maxsus tushunchani nomlashning lingvistik vositasi vazifasini bajaradigan so'z yoki so'z birikmasi bo'lishi mumkinligiga asoslanamiz.

“Tibbiy terminologiyani shakllanish va rivojlanish tarixi” deb nomlangan ushbu bobning ikkinchi bo'limida tibbiy terminologiyaning rivojlanishi va shakllanishi haqida turli faktik ma'lumotlar izohga tortiladi. Ilmiy adabiyotlarda tibbiy terminlar tarixi miloddan avvalgi 3000-2000-yillarga borib taqalishi qayd etilgan. Qadimgi Rim, lotin tilidagi tibbiyot terminologiyasi dunyo tibbiyot sohasining negizini tashkil qiladi. Insoniyat tarixining barcha davrlarida, dunyoning barcha xalqlarida mavjud bo'lgan xalq tabobati tibbiyotning eng dastlabki bosqichi sanalgan. Xalq tabobati tomonidan to'plangan ma'lumotlar qadimgi dunyoning eng yirik shifokorlari – Bogar, Tirumular, Sushruta, Charaka, Vagbhata, Kashyapa, Nagarjuna, Amenhotep, Byan-Tsyue, Chjan Tszi, Rufus, Erasistrat, Pifagor, Aristotel, Disquridus, Gippokrat va Galen, Boquniy Yunoni, A. Sels, Zahraviy, Roziy, Abu Sahl Masihiy, keyinchalik – Ibn Sino, Muso Qurtubiy, Ibn Nafis, Al-Oqsaroyi, Chag'miniy, Muhammad Akbar Arzoni, Bositxon ibn Zohidxon Shoshiy, Alixonto'ra Sog'uniy, Muhitdin Umarov asarlaridan olingan¹³.

Tibbiy atamalar ilk bor Gippokrat (miloddan avvalgi V asr) tomonidan to'plangan va yozib olingan. Qadimgi yunon olimlaridan Galen ham tibbiyotning ilmiy asoslarini yaratishda yunon va lotin tillaridan foydalangan. Bu tillar o'zining ilmiy tugal va tuzilmalarga boyligi bilan tibbiyot atamalari uchun qulay asos bo'lib

¹³ Сорокина Т.С. Народное врачевание и традиционная медицина. Терминология. [Текст] / Т.С. Сорокина // Проблемы социальной гигиены. - М.: Медицина.- 1994. - № 3. – С.57

xizmat qilgan. Shu sababli, ko‘plab hozirgi zamon tibbiy atamalari aynan ushbu qadimiy tillardan kelib chiqqan.

O‘rta Osiyoda tibbiyot terminologiyasining boshlanish nuqtasi sohaning qadimgi vakillari shomonlar faoliyatiga borib taqaladi. Miloddan avvalgi V ming yillikda “falvinlar” (fors tilida “fal” – fol ochish) va “bakshi”lar (sanskrit tilida – o‘qituvchi) tomonidan ilk tibbiyot terminlari yaratilgan va amaliyotda faol qo‘llangan. O‘rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon va Afg‘onistonda miloddan avvalgi I-ming yillikda yashagan xalqlarning tibbiyoti va tibbiy terminlar haqida keng ma’lumot beruvchi birinchi ishonchli manba “Avesto” (miloddan avvalgi IX asr va milodiy III asr) – zardushtiylikning muqaddas kitobidir. O‘rta Osiyoda zardushtiylik paydo bo‘lishi bilan “parixona” (forscha “pari” – “ruh”, “xon” – kinnachilik) va “devana” – devlar egasi singari atamalar qo‘llana boshlandi. IV asrda O‘rta Osiyoda bo‘lajak tabiblar o‘qitiladigan kasalxonalar paydo bo‘ldi, tibbiyot terminologiyasi “dastikar” – jarroh, “koanik” – ko‘z shifokori kabi atamalar bilan boyidi.

Tibbiyotga oid ilmiy asarlar Abu Bakr ar-Roziy, Ibn Sino davrlaridan XX asrgacha arab, qisman fors-tojik tillarida yozilgan bo‘lib, ma’lum davrlar o‘tgach, ular turk, o‘zbek, tatar va boshqa tillarga tarjima qilingan. Roziy, Ibn Sino, Zaynuddin Jurjoniy, Nasriddin Tusiy va boshqalarning tibbiyotga oid asarlari turli davrlarda turk tiliga tarjima qilingan.

A.Navoiy bunyod ettirgan “Dorush-shifo” tabobat maskani ham tibbiy birliklar shakllanishida katta xizmat ko‘rsatgan deyishimiz mumkin.

Dunyo tilshunosligida tibbiy terminlar doim lingvistik tadqiqotlar obyektiga aylangan. Jumladan, S. M. Velichkova nemis tili materiali asosida tibbiy terminologiyani o‘rgangan bo‘lsa, U.V. Xorechko xitoy tibbiy terminlari shakllanishini tadqiq etgan. Xuddi shunday tatar tili materialiga asoslangan terminlarning tarkibiy xususiyatlari va motivatsiyasini R.R.Shamsutdinova, rus tibbiyot terminologiyasining etimologik jihatlari va semantikasini A.N.Agafonovlar o‘rganishgan. O.I.Rukovishnikova, O.V.Otradnova, S.N.Gorelikova, B.Juganova, L.V.Dubenkova, L.M.Apuxtinalar esa ingliz tili materiali asosida terminlarning shakllanish omillari bo‘yicha o‘zlarining kuzatishlarini tahlil qilishgan, Y.V. Smirnova esa tibbiyot terminologiyasi shakllanishida eponimlarning o‘rni masalalarini ingliz tili materiallari asosida tadqiq etgan. A. E. Belskaya va boshqalar ingliz tibbiy terminologiyasini rus tiliga tarjima qilinishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganib chiqishgan¹⁴.

¹⁴ Хоречко У.В. К вопросу образования китайских медицинских терминов // Молодой ученый. – 2010. – № 12 (23).; Шамсутдинова Р.Р. Медицинская терминология в татарском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Казань, 2000. – 24 с.; Агафонов А.Н. Этимология и семантика некоторых медицинских терминов // Вестник Смоленской государственной медицинской академии. – 2015. – Т. 14. – № 3. – С. 97– 102.; Руквишникова О.И., Отраднова О.В. Особенности терминологической номинации в медицинской лексике китайского языка // Международный научно-исследовательский журнал. Филологические науки. – 2017. – № 9 (63). – Ч. 2. – С. 146–150.; Гореликова С.Н. Природа термина и некоторые особенности терминообразования в английском языке // Вестник ОГУ. – 2002. – № 6. – С. 129–136; Džuganova B. English medical terminology – different ways of forming medical terms // JAHR. – 2013. –Vol. 4. – No. 7. – P. 55-69; Дубенкова Л.В., Апухтина Л.М. Медицинская терминология: различные способы образования медицинских терминов (на примере английского языка) // INNOVA.– № 1(6). – 2017. – С. 26 – 30.; Смирнова Е.В. Структурные особенности образования эпонимов в медицинской терминологии (на примере английского языка) // Вестник гуманитарного факультета ИГХТУ. – 2014. – Вып. 6. – С. 100–103.; Бельская А.Е. Специфика перевода

O‘zbek tilshunosligida tibbiy terminlar tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan dissertatsiya ishlari ozchilikni tashkil qiladi. Xususan, A.Xusanov, A.Qosimov, Z.Mirahmedova, A.Saidnomanov, F.Abdulxairovalarni tilga olish mumkin¹⁵.

Shuningdek, bu soha bo‘yicha maqolalar hamda to‘plamlar mavjudligi, milliy terminologik tizimimizni shakllantirishga katta hissa qo‘shgan deyishimiz mumkin.

“Tibbiy terminlarni o‘rganishda kognitiv yondashuvlar” deb nomlangan ushbu bobning uchinchi bo‘limida kognitiv tilshunoslik va konseptual tadqiqotlar, olamning lisoniy manzarasi, olamning konseptual manzarasi, mentallik, konsept, konsept strukturasi tibbiy birliklar mohiyatini anglash munosabatlari yoritiladi.

Shu kungacha tibbiyot terminlarini to‘plash, lug‘atlar yaratish, ilmiy aspektda ham faqat leksik-grammatik jihatlarini ochib berishga asosiy e‘tibor berilgan bo‘lsa, XXI asrga kelib terminologiya muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlar yangi – kognitiv bosqichga o‘tdi. Bu bosqichda soha tadqiqotchilarining qiziqishi madaniyat, milliy tafakkur va til munosabatlariga qaratila boshlanishi bilan bog‘liq. Tibbiyot tili fondining hajmi juda cheksiz, uning chegaralarini aniqlash imkonsiz. Tibbiyotning bo‘limlari, sohaları juda ham ko‘p. Tibbiy leksika zahirasini yuzlab yangi nomlar boyitib boradi. Har bir termini bilish jarayonida kognitiv faoliyatning yangi obyektlari, voqelikning yangi qirralari, belgilari va xususiyatlarini ochish yoki ilgari bilib olingan inson “voqelikni fikriy aks ettirish natijalarining interpretatori va lingvosemiozis markazi” bilish natijalarini yangi terminda qayd etishga intiladi. Shu orqali inson yangilikni idrok etadi va konseptuallashtiradi. Neologizmlarning paydo bo‘lish jarayoni bir qator kognitiv omillarga bog‘liq. Neologizatsiyaning termin yasash mexanizmi quyidagi jarayonlarda qo‘llaniladi:

- a) nomlash uchun yangi terminlar yaratish;
- b) kasallik sababini yoki unga bog‘liq asoratlarni ko‘rsatuvchi birlik nomlari;
- v) yangi realiyalarning paydo bo‘lishi;
- g) yangi atamalarni qisqartirish yo‘li bilan (OITS,OIV);
- d) yangi atamalarni ishlab chiqarishda yasalishlar yordamida;
- e) ifodalash uchun yangi hosilaviy atamalarni yaratish so‘zlovchining atalayotgan narsaga (gipotezaga) baho-ekspressiv munosabati.

Tilning neologizatsiyasi insonning tashqi va ichki dunyosi birliklarini ifodalovchi nominantlarni shakllantirish uchun asosiy mezon hisoblanadi.

Bizga ma‘lumki, qadim zamonlardan beri tibbiyotda ilmiy terminlar emas, balki obrazli nomlar va iboralar ishlatilib kelingan. Bu insoniyat tarixi bilan bog‘liq bo‘lib, tibbiy nomlar kuzatish va taqqoslash asosida paydo bo‘lgan, keyinchalik, inson tanasining tuzilishi, turli diniy e‘tiqodlar bilan taqiqlangan nomlar, maxsus atamalar, antropomorfik (shaxslantirish) va boshqa assotsiativ xususiyatdagi metaforalar, evfemizmlar bilan kodlangan va kamdan-kam holda ilmiy nazariyalarni

английской медицинской терминологии на русский язык // Молодой ученый. – 2017. – № 4 (138). – С. 275 – 277.

¹⁵Xusanov A. Названия болезней и их симптомов в узбекском языке: Дисс. канд. филол. наук. – Т., 1982. – С. 48.; Касымов А.И. Фармацевтическая терминология в современном узбекском языке: Автореф дисс. канд. филол. наук. - Т.: 1982. - Б. 24.; Mirahmedova Z. O‘zbek tilining anatomiya terminologiyasi va uni tartibga solish muammolari. – Toshkent: Fan, 2010. – Б. 9.; Saidnomanov A. Tibbiyot terminologiyasi haqida. Izlanish samaralari. O‘z FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, 2020. 2-son. – Б. 32-34; Abdulxairova F. O‘zbek tilida tibbiyot atamalarining metaforik manzarasi. Filol. fan. fals. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Т., 2021. 2020. 2-сон. – Б. 32-34;.

aks ettirgan.

Agar tibbiy metafora dunyoning tibbiy ko‘rinishini idrok qilishning obrazli modellashtirilishi bo‘lsa, konseptual tibbiy metafora birinchi tasavvurlar, o‘xshatma, taqqoslash, tahlil va nominatsiyalar bilan boshlanuvchi metaforaning paydo bo‘lish jarayonidir. Metaforik ko‘chirish kognitiv jarayonning barcha bosqichlarida: kategoriyalashning asosiy darajasidan boshlab ilmiy gipoteza va nazariyalarni shakllantirishgacha amalga oshiriladi, deb aytishimiz mumkin. Shunday qilib, tibbiy birliklarning paydo bo‘lishi bir qator kognitiv omillarning ta‘siri bilan bog‘liq bo‘lib, insonning kognitiv faoliyati natijasida sodir bo‘ladi.

“Tibbiyot terminologiyasida nominativ birliklar” deb nomlangan so‘nggi bo‘limida tibbiy tushunchalarga nom berish zarurati to‘g‘risida fikr boradi. Insonning tevarak-atrofdagi voqelikni bilish yo‘li hamisha so‘z bilan birga kechgan. Inson o‘zining barcha yutuqlari va kashfiyotlarini til vositalari bilan belgilagan. Har bir birlikni atash jarayonida o‘zining ijtimoiy tajribasi va amaliy ehtiyojlariga tayangan. Inson ko‘plab kasalliklarga chalinishi mumkinligi va hayoti davomida tibbiyot fani bilan bir necha bor to‘qnash kelishi sababli, tushunchalarga nom berish zarurati orqali tibbiy atamalar paydo bo‘lgan.

Nominatsiya – motivlovchi belgi bilan ifodalangan nomlash-atash tamoyilini amalga oshirishni ro‘yobga chiqarish usuli. Masalan, “qizilcha” nominatsiyasi “qizil”, “sarg‘ayma” nominatsiyasi “sariq” rang sifatidan va bilvosita (motivlovchi belgi tilda allaqachon mavjud bo‘lgan boshqa so‘z bilan assotsiatsiya orqali ifodalanganda) bo‘lishi mumkin. Masalan, lug‘atlarda tibbiy birliklar nomlanishi turlicha ko‘rinishda tavsiflanadi. *Qizilcha–uchinchi kasallik* deb nomlanadi. “Uchinchi kasallik” nomi bolalikdagi toshmalarni qo‘zg‘atadigan kasalliklar ro‘yxati tuzilgan paytdan kelib chiqqan bo‘lib, unda qizilcha uchinchi o‘rinda turganligi bilan belgilanadi. Qizilcha virusi kasal odam aksirganda yoki yo‘talganda havo orqali tarqaladi¹⁶. Badanga qizil toshishi va isitma bilan kechadigan, ko‘pincha bolalarda bo‘ladigan, qizamiqqa o‘xshash o‘tkir yuqumli kasallik¹⁷.

Tadqiqot mavzusi doirasida tibbiyotga oid nominativ birliklarni uchta asosiy guruhga bo‘lishimiz mumkin:

Anatomik birliklar – inson tana a‘zolari yoki ularning qismlari nomi tibbiy atamalar tarkibida alohida o‘rin tutadi va ularning shakllanishida asos sifatida xizmat qiladi. *M.: bosh og‘rig‘i, quloq og‘rig‘i, til og‘rig‘i, tish og‘rig‘i, oyoq og‘rig‘i, bel og‘rig‘i, qo‘l og‘rig‘i, oshqozon og‘rig‘i kabi.*

Klinik birliklar – bu barcha tibbiy birliklarning yig‘indisi. Kasalliklar, tibbiy asboblarning nomlari, davolash usullari, barcha bemorlarni davolashda bevosita taalluqli bo‘lgan atovchi birliklar. *M.: istisqo – (arabcha), yurak, buyrak va boshqa organlarning kasallanishi natijasida odam tanasi to‘qimasida suv to‘planishi kasalligi.*

Farmatsevtik – dori-darmon nomini atovchi birliklarda ko‘pgina holatlarda semantik kodlardan foydalaniladi. Tarkibli terminlar, ayniqsa, ko‘p komponentli terminlar til tejamkorligi talabini qondirmaydi, shuning uchun ham farmasevtik

¹⁶ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qizilcha>

¹⁷ <https://izoh.uz/word/qizilcha>

terminlarda ularni qisqartirish tamoyiliga tayaniladi. M.: *brilliant ko'ki (zelyonka), xantal qog'ozi (gorchichnik), faollashtirilgan ko'mir (ugol)*.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Tibbiy birliklarning yasash usullari va lug‘atlardagi tasnifi”** deb nomlanib, besh bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘limi **“Tibbiy birliklar hosil qilishning affiks usuli va ularni lug‘atlarda berilishi”** deb nomlangan. So‘z yasalishi har qanday tilning ichki rivojlanishining asosiy manbalaridan biridir. Bu jarayon tilning lug‘aviy boyligini kengaytirish, yangi tushunchalarni ifodalash va jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlarni til vositasida aks ettirishga xizmat qiladi. Shunga ko‘ra, tilshunoslikda tibbiy birliklarning hosil bo‘lishi uch xil usul orqali amalga oshadi:

1. Morfologik (affiks) usul – tildagi biror mavjud terminga bir va ba‘zan bir necha yasovchi affikslarning qo‘shilishi bilan yangi termin yasaydi. M.: *“Gastrit”* – as.: gastr- (yunoncha “qorin”, “oshqozon”), af.: -it (yallig‘lanishni bildiruvchi affiks); *“Neuralgiya”* – as: neur- (asab), af.: -algiya (og‘riqni bildiradi).

2. Sintaktik (kompozitsion) usul – birikmaning bir komponenti ma‘nosi ko‘chgan so‘zdan, qolgani esa shu soha terminidan iborat lug‘aviy birlikning hosil bo‘lishi tushuniladi. M.: *“Yuqori harorat”*– “yuqori” – ko‘chma ma‘noda (og‘ir, xavfli) “harorat” – tib.birlik; *Quruq yo‘tal* – “quruq” – ko‘chma ma‘noda (balg‘amsiz), “yo‘tal” – tib. birlik.

3. Semantik usulda ma‘lum bir soha terminologiyasining obyekti bo‘lgan lug‘aviy birlik ma‘nosini metaforik ko‘chirish asosida ikkinchi bir sohaga o‘tadi. M.: *“Yuragi lovulladi”* – asl ma‘no: yurak – qon haydaydigan a‘zo.

Tibbiy terminologiyada prefikslar so‘zning boshida keladi va uning ma‘nosini o‘zgartiradi. Ular ko‘pincha joylashuv, son, holat yoki vaqtni ifodalaydi.

1. Joylashuvga oid prefikslar: epi- (ustida) – epidermis terining ustki qatlami; intra- (ichida) – intravenoz vena ichida; peri- (atrofida) – perikard yurak atrofini o‘rab turgan pardasi;

2. Songa oid prefikslar: uni (bir) – unilateral bir tomonlama; tri- (uch) – trisemestr uch semestrlik; poly- (ko‘p) – polyuriya ko‘p siyish;

3. Vaqt va holatga oid prefikslar: pre- (oldin) – prenatal tug‘ilishdan oldin; post- (keyin) – postoperativ operatsiyadan keyin; hyper- (ortiqcha) – perhipertoniya yuqori qon bosimi.

Tibbiy suffikslar (so‘z oxiri qo‘shimchalari) tibbiy terminlarda juda muhim bo‘lib, ular so‘zning asosiy ma‘nosini aniqlaydi, ko‘pincha kasallik holati, tashxis, jarayonlari, holat yoki amaliyotni bildiradi.

1. Kasallik, holat va patologiyaga oid suffikslar: -itis (yallig‘lanish) – gastritis; -emia – (qondagi holat) – anemia;

2. Tashxis va tekshiruvlarga oid suffikslar: -gram (yozuv) electrocardiogram (EKG) yurak elektr faolligi yozuvi; -metr (o‘lchov asbobi) – thermometer – harorat o‘lchagich;

3. Davolash va amaliyotga oid suffikslar: -ectomy (olib tashlash) – appendectomy ko‘richakni olib tashlash; - therapy – (davolash) chemotherapy kimyoviy davolash.

O‘zbek tilida tibbiy birliklar asosan so‘z yasovchi qo‘shimchalar, so‘z birikmalari, va metaforik ifodalar orqali amalga oshadi. Turkiy tillarda prefikslar

mavjud bo‘lmagani uchun, tibbiy lug‘atlarda so‘z oxiriga qo‘shiladigan qo‘shimchalar suffikslar va birikmalar asosiy rolni o‘ynaydi. (“2.1-jadvalga qarang”)

2.1- jadval

“O‘zbek tilida tibbiy birliklar yasashda ishlatiladigan asosiy qo‘shimchalar”

Qo‘shimcha	Vazifasi / Ma‘nosi	Misollar
-lik / -lilik	holat, sifat, kasallik nomi	qandli diabet qandlilik, sog‘lomlik
-li / -li/-chi	aloqadorlik bildiradi	dardli, kasalli, infeksiyali
-siz	yo‘qlik, inkor	og‘riqsiz, dardsiz, simptomsiz
-kor	amal qiluvchi, mutaxassis	davokor, shifokor
-xona	joy, binoni bildiradi	dorixona, shifoxona, tahlilxona
-vchi / -uvchi	amalni bajaruvchi	davolovchi, parvarishlovchi

Dissertatsiyada kasallik nomlarini ifodalovchi terminlarni yasashda ishtirok etuvchi suffiks va prefikslarning asosiy guruhlari aniqlandi, ularning struktur-semantik vazifalari va lug‘atlarda berilishi belgilandi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, termin yasashda qo‘shimchalar terminlarning ma‘nosini aniqlashga yordam beradigan semantik tartibga soluvchi tizim vazifasini bajaradi.

Bobning ikkinchi bo‘limi **“Tibbiy birliklarda kompozitsion usul va ularning lug‘atlarda berilishi”** deb nomlanadi. Tibbiy terminlarni hosil qilishda kompozitsion termin yasash usulidan ham foydalaniladi. Termin yasashning bu usuli mahsuldorligi terminlashtirilayotgan tushuncha elementlarini eksplitsit ifodalash bilan bog‘liq bo‘lib, bu tushunchaning alohida belgilari o‘zaro bog‘liqligini kuzatish imkonini beradi. Tibbiy terminlarning aksariyat qismi yunon-lotin tillaridan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida kompozitsion usul orqali yasalgan. Bu usulda so‘zlarning har biri alohida ma‘noga ega bo‘lib, lug‘atlarda so‘z birikmasi yoki keng ma‘noli tushuncha mazmunini ifodalaydi. Alohida xususiyatlari sifatida so‘z birikmasining har bir elementi o‘zining lug‘aviy ma‘nosini saqlaydi. Birikma odatda aniqlovchi + aniqlanuvchi yoki boshqaruvchi + boshqariluvchi tartibida bo‘ladi.

Tibbiy birliklarni lug‘atlarda so‘zga so‘z qo‘shish usuli orqali bir necha atamalar nomlarini xilma xilligini ko‘rish mumkin. Aniq va to‘liq ma‘no hosil qiladi. Masalan, “yurak kasalligi” va “yurak yetishmovchiligi” atamalari yaqin bo‘lsa-da, ikkinchisi aynan yurak faoliyatining me‘yorda emasligini bildiradi. Bularni quyidagicha tasniflaymiz:

1. Kasallikni batafsil tasvirlaydi:

qon bosimi – qon oqimining bosim ko‘rsatkichlari; *qon bosimi yuqori* – gipertoniya holati;

2. Bir necha so‘z qo‘shilishi orqali yangi terminlar hosil bo‘ladi: *o‘pka* fibrozi, *o‘pka* yallig‘lanishi, *o‘pka* infeksiyasi;

3. Jarayon yoki simptomlarni aniq ifodalash imkonini beradi: *teri* qichishishi, *teri* yallig‘lanishi, *teri* qurishi;

4. Diagnostika va davolash jarayonlarini tavsiflashda yordam beradi: *qon*

tekshiruvi, *qon* bosimini o‘lchash, *qon* quyish.

So‘z turkumlari asosida quyidagicha tasniflandi: ot+ot kompozitsiyasi orqali yasalgan kasallik nomlari ikki otning qo‘shilishi orqali hosil bo‘ladi. Bu turdagi kasallik nomlari ko‘proq aniq bir tana a‘zosi yoki jarayon bilan bog‘liq bo‘ladi.

Masalan:

ot + ot = kasallik nomlari: nafas yetishmovchiligi;

ot + ot = anatomik birliklar: qon tomiri, yurak bo‘lagi;

ot + ot =dori-darmon nomlari: yurak dorisi, surtma dori.

sifat+ ot usulida yasalgan kasallik nomlari ot (asosan tana a‘zosi yoki tizim) va uni tavsiflovchi sifat so‘zlarining qo‘shilishi orqali hosil bo‘ladi. Bunday birikmalar kasallikning holatini, darajasini yoki turini bildiradi.

1. Yuqori qon bosimi – “yuqori” (sifat)+ “qon bosimi” (ot);

2. Surunkali qon yetishmovchiligi – “surunkali”.+“qon yetishmovchiligi”.

ot + fe‘l (ya‘ni otdan keyin fe‘l keladigan birikmalar) usulida yasalgan kasallik nomlari odatda kasallikning jarayoni, holati yoki belgilari fe‘l shaklida ifodalanadi. Bu birikmalar kasallik yoki uning belgisini yanada aniqroq tavsiflash uchun ishlatiladi.

1. Qon quyish – “qon” (ot) + “quyish” (fe‘l) (masalan, qon quyish jarayoni yoki qon ketishi);

2. Bosh aylanish – “bosh” + “aylanish”.

Toponimik nomlar ishtirokida hosil qilingan tibbiy birliklar: *Amerika tripanosomozi* (Amerika tripanosomozi tropik parazitar kasallik bo‘lib, odatda “triatom kanalalar” deb ataluvchi hasharotlar orqali tarqaladi.

Italyancha rinoplastika (Rinoplastika jarrohligi, odatda burun shakli yoki hajmini o‘zgartirish uchun kosmetik protseduradir.

Bobning uchinchi bo‘limi **“Tibbiy birliklar yasallishining leksik-semantik usuli va lug‘atlardagi tasnifi”** deb nomlanadi. Semantik usulda yasalgan ba‘zi birliklar uchun soha lug‘atlariga kirish va unda mustahkamlanish, yangi leksik birlikning termin sifatida shakllanishi, ularni lug‘at maqolalar izohida berilishi bilan xarakterlanadi. Tibbiy lug‘atlarda umumiy tushunchalar bilan maxsus tushunchalarning muhim bo‘lmagan belgilari asosida leksik-semantik usuli qiyoslanishi mumkin. Bunday yasallishda ko‘pincha metaforalarga murojaat qilinadi. Masalan, ayrim maxsus tushunchaga ega bo‘lgan “Tib qonunlari” asarida keltirgan birliklarni izohga tortamiz: *suyak* atamasi izohli lug‘atlarda – odam va umurtqali hayvonlar skeletining asosiy qismi sifatida tavsiflanadi. Ibn Sino o‘z asarida ushbu atamani bir necha xilini turli o‘xshatishlar ya‘ni metaforik birliklar orqali izohlab o‘tgan. *Suyak* semasini ifodalovchi birliklar: *kunjtsimon suyak*, *xanjarsimon suyak*, *kubsimon suyak*, *qayiqsimon*, *yonbosh suyak*, *lomsimon suyak* kabi. Metaforaga o‘tuvchi semantika asosida atamalarni ilmiy sohalardan, shuningdek, tibbiyotdan, boshqa diskurslarga ko‘chirishda ko‘p ishlatiladigan yoki barchaga tushunarli birliklarga ko‘proq diqqat qaratiladi.

Tibbiy birliklarda metaforik ma‘no ko‘chimlarini o‘rgangan rus va ingliz tilshunoslari ularda harbiy terminlar bilan ifodalangan “urush” semasidan iborat metaforik kodlardan faol foydalanildi, degan xulosaga kelganlar. O‘zbek tilidagi tibbiy metaforalarni tahlil qilish jarayonida ularning xulosalariga qo‘shilish

mumkin. Masalan, kasallikka qarshi *kurashish*, kasallikni *yengish*, davolashda *oldinga yurish*, yurak *blokadasi*, viruslar *hujumi* va hokazo. Ushbu semantik guruhda leksemalarning ishlatilishida organizm safarbarlik holatida tasavvur qilinadi va bir qismining vayron bo'lishi nazarda tutiladi, davolanish esa harbiy operatsiyalar kabi tasavvur qilinadi.

Quyida tibbiyot lug'atlarida uchraydigan metonimik ko'chim modellarining asosiy tasniflari va ularning turlari izohi keltiriladi:

1. A'zo nomi – a'zodagi kasallik yoki holat: “jigarim og'riyapti” jigar sohasidagi og'riq, “belim uzildi” orqa mushaklar, umurtqa og'rishi;

2. Kasallikning sababi bilan natijasi orasidagi yaqinlik asosida ko'chim holati: “sovuq urdi” – shamollash (kasallik), “yel yurdi” – radikulit, og'riq;

3. Preparat yoki davo shakli nomi asosida ko'chim holati: “*bir dam ich*” – *dorivor ichimlik, malham*;

4. Tibbiy birliklarda tana qismi yoki joy nomi asosida ko'chim holati: “tomoq yallig'langan” – angina; “yuragi bezovta” – *yurak ritmi, bosimi, og'rigi*;

5. Tibbiy birliklar alomatlar (simptomlar) orqali nomlanadi: *bola terlamasi*.

Hosil bo'lishning leksik-semantik usullari – metaforizatsiya va metonimizatsiyadan tashqari, ma'noning torayishi deb ataladigan yana bir usul ajralib turadi. Har bir kasallikning o'ziga xos turlari mavjud bo'lib, ularning lug'atlarda berilishida aynan qaysi a'zolar zararlangani yoki kasallikning sababi nima ekanligi aniqroq ko'rsatiladi.

“Sariq” – har qanday sariq rangdagi narsa – gepatit (jigar infeksiyasi);

“Bosim” – har qanday fizik bosim – qon bosimi (arterial bosim).

Bobning to'rtinchi bo'limi “**Tibbiy birliklarda abbreviaturalar va lug'atlarda berilishi**” deb nomlanadi. Zamonaviy ingliz, rus, lotin, o'zbek tillarida yozma va og'zaki tibbiy diskursda, tibbiy lug'atda har qanday termini qisqartirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Tibbiy lug'at izohlarida abbreviaturalar: diagnostik yozuvlar, retseptlar, tahlil natijalari, kasallik tarixlari, simptomlar va muolajalarda keng qo'llaniladi. (“2.2-jadvalga qarang”)

2-2-jadval

Tibbiyot muassasalarida faol qo'llanadigan qisqartmalarning lug'atlarda berilishi		
Qisqartma	To'liq shakli	Ma'nosi
1. Tashxis va umumiy tibbiy atamalar		
T	Temperature	Harorat
Hx	History	Kasallik tarixi
2. Tibbiy muolajalar va protseduralar		
IV	Intravenous	Tomir ichiga yuborish
IM	Intramuscular	Mushak ichiga yuborish
3. Tibbiy bo'limlar va xonalar		
OR	Operating Room	Operatsion xona
OPD	Outpatient Department	Ambulator bo'lim
4. Tahlil va diagnostika bilan bog'liq qisqartmalar		
ECG / EKG	Electrocardiogram	Yurak faoliyatining elektrodiagrammasi
USG / U/S	Ultrasound	Ultrasonografiya

5. Tibbiy bo‘lim va xona		
OR	Operating Room	Operatsion xona
OPD	Outpatient Department	Ambulator bo‘lim
6. Davlat va xalqaro tashkilotlar		
WHO	World Health Organization	Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti
HMO	Health Maintenance Organization	Sog‘liqni saqlash xizmatlari ko‘rsatuvchi tashkilot
7. Kasalliklar nomlari		
DM	Diabetes Mellitus	Qandli diabet
COVID-19	Coronavirus Disease 2019	Koronavirus infeksiyasi (2019)

Bu qisqartmalar tibbiyot xodimlari bilishlari shart bo‘lgan nomlardir. Berilgan qisqartmalar tibbiyot sohasining eng ko‘p uchraydigan terminlari bo‘lib, bu qisqartmalar shifokorlarning kundalik faoliyatida har kuni uchraydi. Bugungi kunda hamma sohalar elektronlashtirilgan, shifoxonalarda turli zamonaviy elektron ilovalardan foydalaniladi. Elektron ilovalarga esa ko‘p terminlarning qisqartma shakllari kiritilgan.

Qisqartmalarining yana bir turi akronimlardir. Akronimlar – so‘zlar yoki so‘z birikmalarining bosh harflaridan hosil bo‘lgan, harfma-harf emas, balki yaxlit so‘z sifatida talaffuz qilinadigan qisqartmalardir. *OITS* (ortirilgan immunitet tanqisligi sindromi).

Tibbiyot tilida termin yasashning yana bir usuli so‘zni qisqartirishdir. An’anaga ko‘ra, apokopa (so‘zning oxirgi elementini kesish), aferezis (birinchi elementni kesish) va sinkopa (so‘z ichidagi tovushlar yoki harflarning tushib qolishi) yo‘li bilan hosil qilingan qisqartmalar ajratiladi.

Bobning beshinchi bo‘limi “**Tibbiyot tilida eponimik terminlarning lug‘aviy xususiyatlari**” deb nomlanadi. Zamonaviy tibbiyot leksikonining eng samarali sohalaridan biri eponimlardan foydalanishdir. Eponimlar – birinchi komponenti atoqli ot bo‘lgan terminologik so‘z birikmalaridir. Biz atoqli otlarni ularning kelib chiqishini hisobga olgan holda bir nechta guruhlarga ajratish asosida eponimik atamalarning o‘z tasnifini ishlab chiqdik.

Shaxs nomlari asosidagi eponimlar – birinchi marta tavsiflagan yoki ushbu davolash usulini birinchi marta qo‘llagan olim-shifokorlarning familiyalari qayd etilgan: *Parkinson kasalligi* (inglizcha Parkinson’s disease, nemischa Parkinson-Krankheit fransuzcha, maladie de Parkinson). XIX asr boshlarida uning belgilarini batafsil tasvirlab bergan ingliz shifokori Jeyms Parkinson nomi bilan atalgan;

Alsgeymer kasalligi (inglizcha: Alzheimer’s disease, nem. Alzheimer-Krankheit, fransuzcha: maladie d’Alzheimer) 1906-yilda uni birinchi marta tasvirlab bergan nemis psixiatri Alois Alsgeymer sharafiga nomlangan. Bizning ma’lumotlarimizga ko‘ra, eponimlarning bu turi turli tillarning tibbiyot terminologiyasida eng keng tarqalgan.

Toponimlarga asoslangan eponimlar – birinchi marta ommaviy axborot vositalari matnlarida Yer sharining biror joyida kelib chiqqan noma’lum epidemiyalarni tasvirlashda paydo bo‘ladi. Toponimik atamalarning eng yuqori foizi yuqumli kasalliklar nomenklaturasida qayd etilgan. M.: *Tulyaremiya* (inglizcha

tularemia, nemischa Tularamie, fransuzcha tularemie) shu nomni 1912-yilda shu infeksiyon kasallikning qo‘zg‘atuvchisi ajratib olingan AQShning Tulyar okrugidan olgan;

Laym kasalligini yuqtirgan birinchi bemorlar (inglizcha Lyme disease, nem. Lyme- Krankheit, fransuzcha, maladie d’ Lyme) 1975-yilda Amerikaning Laym shaharchasida aniqlangan va h.k.);

Mifonimlar asosida shakllangan eponimlar – turli tillarning tibbiy terminologiyasida afsonaviy shaxs otlaridan yasalgan atamalar. M.: *Hymen* (rus. gimen) atamasi nikoh xudosi Hymen (rus. Gimeney) nomidan yasalgan. Ushbu atama quyidagi tibbiy atamalarda mavjud: hymenologia (rus. gimenologiya), hymenoscope (rus. gimenoskop) va boshqalar; *Mania* (rus. maniya) atamasi telbalik ma’budasi Mania (rus. Maniya) nomidan hosil bo‘lgan. Ushbu atama ingliz va rus tillarida keng qo‘llaniladi va har qanday psixopatologik buzilishni anglatadi.

Adabiy qahramonlar yoki adabiy asarlar mualliflari nomlariga asoslangan eponimlar – ular klinik sindromlar va simptomlarni nomlash uchun ishlatiladi. *Pikvik sindromi* (Ingliz Pickwick sindromi) Charlz Dikkensning «Pikvik klubining o‘limidan keyingi yozuvlari» romani asosida nomlangan. Pikvik sindromi rasmiy ravishda faqat 1956-yilda nomlangan. Sindromga doktor Baruell va uning hamkasblari tibbiyot jurnallaridan birida «Pikvik sindromi» haddan tashqari semizlik, uyquchanlik, nafas olish ritmining buzilishi bilan og‘rigan bemorning kasallik tarixini chop etib, shunday nom bergan deb hisoblanadi¹⁸.

Myusse simptomi (Ingliz Musset simptomi) fransuz shoiri va so‘nggi romantizm prozaigi nomi bilan atalgan. Bu simptomning mohiyati yurak ritmi bilan bir vaqtda bosh chayqalishidan iborat.

Eponimlar fan tilining bir qismi sifatida inson faoliyati va uning madaniyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Zamonaviy tilshunoslik inson omilini o‘rganish va eponim-terminlarni kognitiv yondashuv nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Tibbiy birliklarda leksik-semantik munosabatlarning leksikografik xususiyatlari**” deb nomlanib uch bo‘limdan iborat. Birinchi bob “**Lingvistik tadqiqotlarda tibbiy birliklarning leksikografik izohi**” ga bag‘ishlanadi. Tibbiyot terminologiyasida tibbiy birliklarning lingvistik tavsifi o‘zbek tilshunos olimlarining tadqiqot obyekti sifatida keng o‘rganilib kelinmoqda. D.X. Bozorovanning “Odam tanasi a’zolari nomlarining semantikasi va ular asosida yasalgan turkiy tillardagi so‘zlar” deb nomlangan dissertatsiyasi ham shular jumlasidandir. Ishda somatizmlarning o‘ziga xos leksik-semantik jihatlariga e’tibor qaratilgan. A. Xusanov o‘zining “O‘zbek tilida kasallik va simptom nomlari” mavzusidagi dissertatsiyasida tibbiyot terminologiyasida katta hajmni egallaydigan kasallik va ularning belgilarini ifodalovchi terminlarni obyekt sifatida olib tadqiq qilgan.

A.Qosimovning “Zamonaviy o‘zbek tilida farmatsevtik terminologiya”

¹⁸Коряев К.Э., Сергеева А.И. Литературные симптомы в клинике внутренних болезней // Современные проблемы науки и образования. Москва: РАЕ, 2009. №3, С.33-35.

dissertatsiyasi ham chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotchi soha terminlarining morfologik jihatini o‘rganib, ularning ichki tuzilishida -ma, lik, (u)v+chi, (i)sh, -ki (uning shakllari: -gi, -gi, qi) g‘ich (uning shakllari: -kich, -qich, -g‘ich) kabi morfemalar faol qo‘llanilishini asoslagan. Z.Mirahmedova o‘zbek tilshunosligida anatomik terminlarga bag‘ishlangan izlanishini amalga oshirdi. Olima anatomik terminlarni partonimik, gipo-giperonimik munosabatlariga ko‘ra mavzuiy jihatdan guruhlarga ajratgan.

F.Akbarxodjayevaning “Tibbiyot sohasiga oid o‘zlashma terminlarning lingvostatistik tadqiqi (lotin tilidan rus va o‘zbek tillariga o‘zlashgan terminlar misolida) mavzusidagi dissertatsiyasida o‘zlashgan terminlarning derivatsion, struktur-semantik, transformatsion aspektlarda lingvostatistik jihatlari yoritib berilgan.

A.Saidnomanovning “O‘zbek tili tibbiyot terminologiyasi va uning leksikografik talqini” mavzusidagi dissertatsiyasida soha terminlari o‘z va o‘zlashgan qatlamga bo‘lib o‘rganilgan. Tibbiy terminlarning leksikografik jihati D. Xudoyqulovning “Farmatsevtik terminlarning leksikografik va funksional-semantik tadqiqi (ingliz, rus, o‘zbek tillari misolida)” mavzusidagi dissertatsiyada ham o‘z aksini topgan. Soha terminlarining kompyuter texnologiyalari asosida tizimlashtirish masalasi B. Suyunovning “Tibbiy terminlar semantikasi va tezaurusi” deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasida tadqiq etilgan.

To‘liq o‘zbek tilshunosligida tibbiyot terminologiyasi bo‘yicha qilingan tadqiqotlarni olima F.Qosimova o‘rganib ularni ikki xil dissertatsiyalar xronologiyasi va monografik ko‘lamda tadqiq etilgan ishlar ko‘rinishda tasniflaydi: 1967-yildan 1994-yilgacha bajarilgan tadqiqotlarda tibbiyotning ma‘lum tarmoqlari alohida obyekt sifatida o‘rganilganligini kuzatish mumkin. Misol uchun, D.Bozorova odam tanasi a‘zolari nomlarini, A.Xusanov simptom nomlarini, A.Qosimov dori nomlarini, Z.Mirahmedova kasallik va anatomik terminlarni tadqiq qilgan. Tilshunoslik nuqtayi-nazaridan qaraganda ularning barchasida terminlarning semantik, morfologik, etimologik jihatlari va muammolari ochib berilgan.

M. Abuzalova tomonidan 2020-yilda “Tibbiyotga oid atamalar elektron platformasini yaratish” mavzusida amaliy loyiha ishlab chiqildi. Loyiha doirasida “O‘zbek tili tibbiy evfemizmlarining qisqacha izohli lug‘ati”, “Tibbiy metaforalarning qisqacha izohli lug‘ati”, “Tibbiy perifrazalarning izohli lug‘ati”, “Inglizcha-o‘zbekcha tibbiy so‘zlashgich”, “O‘zbek folklori tilida tibbiy birliklarning qisqacha izohli lug‘ati” yaratildi.

Leksikografik nuqtayi-nazaridan qaraganda ularning barchasida terminlarning semantik, morfologik, etimologik jihatlari va muammolari izohlab berilgan.

Bundan ma‘lum bo‘ladiki, tibbiy birliklarning ma‘no va mazmun jihati tadqiqotchilarning e‘tiboridagi eng muhim masala sanaladi. Bizningcha ham, tibbiy birliklarning bu xususiyatlarini o‘rganish leksikografik tizimdagi sinonimiya, antonimiya, omonimiya, polisemiya, eponimiya kabi ulkan muammolarni hal qilishga yaxshiroq xizmat qiladi.

Bobning ikkinchi bo‘limi **“Tibbiy birliklarning ko‘p ma‘noliligi va omonimligi”** deb nomlanadi. Tibbiy teminlarning aksariyati polisemiyaga ehtiyoj

sezadi. Polisemiya inson bilimining darajasi bilan bog'liq ekan, turli xalqlardagi bilim darajalarining turtiligi ham o'sha xalq tilidagi polisemiyalarda o'z aksini topadi. Aniqroq qilib aytganda, polisemiya milliy xarakterga ega bo'ladi. Leksik ma'nolarning milliy xarakterga ega bo'lishi polisemantik so'zlarda o'z aksini topmasdan iloji yo'q. Chunki polisemantik so'zlar leksik ma'nolar hisobigagina tarkib topadi. Masalan: **parda**: Devorga mix qoqib, *parda* ilingan. To'ra mehdoda ko'rpalar taxlangan, ular ham atlasdan, bularning bari mehmonlar uchun // *Ko'z pardasini* davolamoq; **kosa**: Kosa to'la sut berardilar, to'yib-to'yib ichardim. // Qayt ortingga – ota-onangning qoshiga, xorlik qanotingni past tut, *ko'zingning kosasini* oyoq ostlariga poyondoq qil!

Ko'pgina polisemantik birliklar metaforizatsiya hodisasi orqali yuzaga keladi. Metaforizatsiya hodisasi ko'pincha odam uchun oson o'zlashtiriladigan va ko'zga ko'rinmaydigan tibbiy atamalar bilan bog'liq holda inson tanasi a'zolari: oyoq, tomoq, bo'yin, qo'l, soch, oshqozon, quloq va boshqa birliklar orqali yasaladi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, tibbiy polisemantik birlikning struktur xususiyatlari uning semantik hajmini va metaforik mosligini belgilaydi. Polisemiya fanlararo va fan ichidagi shakl farqlanadi. Polisemiyaning fanlararo shakli tibbiyotning turli sohalarida, masalan, jarrohlik va anatomiyada (anastomoz) yoki jarrohlik va nevrologiyada (anesteziya) qo'llaniladigan atamalardir. Bu turining asosiy sababi ko'p sonli mikroterminosistemalarning mavjudligi bo'lib, ularda bitta termin turli ma'nolarni ifodalashga mo'ljallangan. Kasallik nomlarini ifodalovchi turli tibbiy terminlarni tahlil qilib, xulosa qilish mumkinki, tibbiyot terminologiyasida polisemiya (ko'p ma'nolilik) adabiy tildagidek keng tarqalmagan bo'lsa-da, turli ko'rinishlarda uchraydigan hodisadir.

Tibbiyotda omonim birliklarning ham o'ziga xos paradigmatlari mavjud. Birgina inson kasalliklarini o'rganuvchi bo'limlar tibbiyotni ma'lum bir fanlari doirasida talqin qilinadi. Bularning har birining o'z terminlari mavjud. Fanlararo qo'llaniladigan birliklar ham o'zaro omonimlik munosabatlarini hosil qiladi. M: *Alveolit I* – (o'pka pufakchalarining) yallig'lanishi bo'lib, u nafas olish funksiyasining buzilishiga olib keladi. (Terapiya); *Alveolit II* – tish devorlarining yallig'lanishi¹⁹. (Stomatologiya)

Ikkala omonim ham lotincha *alveolus* so'zidan olingan bo'lib, "hujayra, teshik" degan ma'noni anglatadi, lekin birinchi holda, alveolalar *o'pkaning alveolalari*, ikkinchisida esa *tishning alveolalari*. Birinchi omonim terapevtik terminologiyaga, ikkinchisi stomatologiyaga tegishli.

Tibbiyot faniga oid bir emas, balki bir qancha hodisalar, kasalliklar, alomatlar, sindromlar va hokazolarni kashf etgan, tavsiflagan shifokor-olimlarning faoliyati natijasida paydo bo'lgan omonim eponimlar ham bor. M: *Aleksandr kasalligi I* (V. Aleksandr, zamonaviy amerikalik shifokor) – oilaviy irsiy gemorragik diatez (qon ketishiga moyillik bilan davom etadigan turli holatlar)

Aleksandr kasalligi II (V. S. Aleksandr, zamonaviy ingliz nevropatologi) –

¹⁹ Энциклопедический словарь медицинских терминов. В 3-х т. / Гл. ред. Б.В. Петровский. - М.: Изд-во «Советская энциклопедия», 1984.

markaziy asab tizimining irsiy kasalligi bo‘lib, klinik jihatdan markaziy bosh miya falaji va gidrosefaliya bilan namoyon bo‘ladi.

Biz keltirgan, omonimlar qatoriga kiruvchi barcha misollar insonning ayrim kasalliklarini bildiruvchi tibbiyot terminlari sohasida omonimiya hodisasi sodir bo‘lishini va umumiy adabiy lug‘atdagi kabi xususiyatlar bilan xarakterlanadigan semantik jarayon ekanligini aniq isbotlaydi. Tizimlararo omonimiya umumadabiy leksikadan terminlashuv jarayoni natijasida hosil bo‘lgan hodisadir. Bunday terminlar aynan shu leksik birliklarga nisbatan omonim bo‘ladi. M.: Saraton atamasi o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagi ma’nolari keltirilgan. Saraton – ot

1. Astronomiyada (s – katta) O‘n ikki burjning biri, Javzo va Asad burjlari o‘rtasida joylashgan. *Saraton o‘rta kengliklarda kuz, qish va erta bahorda ko‘rinadi.* O‘zME

2. Shamsiya yil hisobida to‘rtinchi oyning arabcha nomi (22-iyun 21-iyul davriga to‘g‘ri keladi). *Saraton kirdi. Birovning ishiga saratonda qo‘l muzlaydi.*

3. Zoologiyada. Daraxt, buta va o‘simliklarning barg shirasini so‘rib zarar keltiruvchi hasharot turi .

4. Tibbiyotda “Saraton” – birligi tibbiyot xodimlarining muloqot lug‘atida kam foydalaniladi. Kasallikning maxfiyligini saqlagan maxsus nomi bilan almashtiriladi (lipoma, sarkoma, leykoma va boshqalar). Saraton asosan bemorlar muloqotida kasal organ nomi bilan birga qo‘shib ishlatiladi. (oshqozon saratoni, o‘pka saratoni, ko‘krak saratoni va boshqalar). Rak kasalligi; rak.

Tilshunoslikda polisemiya va omonimiyani farqlash masalasiga oid boy va qiziqarli materiallar to‘planganligiga qaramay, ko‘plab olimlar uchun ushbu til hodisalari sohasidagi tadqiqotlar dolzarb bo‘lib bormoqda.

Bobning uchinchi bo‘limi **“Tibbiy birliklar sinonimiyasi va antonimiyasining leksikografik jihatlari”** deb nomlanadi. Tibbiy birliklar tizimini shakllanishida, lug‘atlar yaratishda mahsuldor sanalgan tibbiy atama-sinonimlarni tahlil qilishga va ularni turli tasniflar orqali izohlashga harakat qildik. Izlanishlarimiz tibbiyot terminologiyasining salmoqli qismini sinonimlar, ya’ni tovush tarkibi bilan farq qiluvchi ma’lum bir mikroterminologiya tizimi doirasida bir xil ilmiy tushunchani ifodalovchi so‘z va iboralar tashkil etishini tasdiqlaydi. Sinonimlar sohaviy atamalar fondining 25-40% gacha qismini egallaydi. Tibbiyot terminlarining ensiklopedik lug‘atida 60 ming lug‘at birliklaridan sinonimlarning ulushi 15 mingga yaqin. Ba’zan bir xil tushuncha o‘nlab yoki undan ortiq sinonimlar bilan ifodalanadi²⁰. Tibbiy sinonim birliklar haqidagi turli izohlarga asoslanib, tibbiy terminlar yunon-lotin tillaridan kelib chiqishi, tushunchalarning yangi tasnifi paydo bo‘lganida, shifokor va bemor muloqot jarayonida albatta o‘z sinonim birliklariga ehtiyoj sezadi degan, xulosaga kelishimiz mumkin. Bizningcha, tibbiy lug‘atda sinonimik atamalarining berilishini turli mezonlar asosida tasniflash mumkin. (“3-jadvallarga qarang”).

²⁰ Деревлева Н.В., Шульга А.А. О некоторых проблемах перевода англоязычной медицинской литературы, связанных с широким развитием синонимии в медицинской терминологии // Журнал Гродненского государственного медицинского университета. 2009. – №3. – С.131-132.

3-1-jadval.

Til manbasiga ko‘ra sinonimlar

Tur	Tavsif	Misollar
O‘zbek tili sinonimlari	O‘zbek tilidagi atamalar	“Qon bosimi” – “bosim balandligi”
Ruscha sinonimlar	Rus tilidan kirgan atamalar	“Грипп” – “gripp” – “influenta”
Lotincha sinonimlar	Ilmiy adabiyotlarda	“Fraktura” – “suyak sinishi”
Inglizcha sinonimlar	Zamonaviy tibbiyotda	“Stroke” – “insult” – “miya qon aylanishi buzilishi”
Tarjimaviy sinonimlar	Bitta so‘zga bir nechta tarjima	“Hypertension” – “gipertoniya”, “qon bosimi yuqoriligi”
Dialektal sinonimlar	Hududlarga qarab	“Suyuqlik yig‘ilishi” – “ichga suv to‘lishi” – “ascit”
Professional va ommaviy til	Tibbiy va ommaviy shakllar	“Stenokardiya” – “yurak siqilishi”

3-2-jadval.

Leksik-semantik xususiyatiga ko‘ra sinonimlar

Tur	Tavsif	Misollar	Izoh
To‘liq sinonimlar	To‘liq ma‘nodosh,	“Faringit” – “tomoq og‘rig‘i”	Kontekstda farq qilmaydi
Qisman sinonimlar	Ma‘nosi yaqin, ammo to‘liq emas	“Shamollash” – “ORVI”	Biri umumiy, biri aniq
Stilistik sinonimlar	Uslubiy farqli, ma‘no bir xil	“Nevroz” – “asabiylik”	Ilmiy va so‘zlashuv uslubi
Emotiv sinonimlar	Hissiy ta‘sir kuchli	“Saraton” – “rak” – “o‘sma”	“Saraton” og‘irlikni bildiradi
Kontekstual sinonimlar	Faqat kontekstda sinonim	“Shish” – “o‘sma”	Har doim almashtirilmaydi
Ko‘pma‘noli sinonimlar	Bir so‘z bir nechta ma‘noga ega	“Bosim” – “gipertoniya”, “ichki bosim”	Ma‘nosi kontekstga bog‘liq
Umumiy va maxsus sinonimlar	Umumiy tushuncha	“Shamollash” – “ORVI”, “bronxit”	Maxsus sinonim torroq ma‘noga ega

3-3-jadval.

Kelib chiqishiga ko‘ra sinonimlar

Tur	Tavsif	Misollar
Eponim terminlar	Shaxs nomidan olingan	“Altsgeymer kasalligi” – “senil demensiya”
Tavsifiy sinonimlar	Belgilar asosida nomlangan	“Qon kamligi” – “anemiya”
Metaforik sinonimlar	Ko‘chma ma‘noda ishlatilgan	“Yurakni siqish” – “angina pektoris”

3-4-jadval.**Tibbiyot sohalariga ko‘ra sinonimlar**

Kardiologiya	“Yurak urishi buzilishi” – “aritmia”
Nevrologiya	“Qon aylanishi buzilishi” – “insult”
Pediatriya	“O‘pka shamollashi” – “pnevmoniya”

O‘zbek tilidagi tibbiy birliklarni to‘g‘ri tizimlashtirish, avvalo ularning semantikasi va xususiyatlarini atroflicha o‘rganish, xorijiy terminlarni o‘zbekcha muqobilarni, sinonimlarini yaratish ularni kundalik muomalaga olib kirish bugungi kun tilshunoslari oldiga qo‘yilgan dolzarb masaladir.

Tibbiy antonim birliklar – bu tibbiy terminologiyada bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi ma‘noni anglatuvchi juft atamalar bo‘lib, ularning semantik mazmuni qarama-qarshilik asosida quriladi. Bu birliklar ko‘pincha fiziologik jarayonlar va diagnostika natijalarini ifodalashda ishlatiladi. Inson kasalliklari nominatsiyasi sohasida antonimiyaning leksik turini quyidagi misollar yordamida lug‘atlarda tasniflash mumkin.

3-5-jadval.**Leksik antonimiya**

Atama	Antonimi	Izoh
Sog‘liq	Kasallik	Umumiy holatlarning qarama-qarshiligi
Tuzalish	Yomonlashish	Sog‘ayish va kasallik kuchayishi
Hayot	O‘lim	Biologik holatlarning ziddi

3-6-jadval.**Prefiksial antonimiya**

Atama	Antonimi	Izoh
Giperglikemiya	Gipoglikemiya	Glyukoza miqdorining farqi
Gipertermiya	Gipotermiya	Tana haroratining farqi
Taxikardiya	Bradikardiya	Yurak urish tezligi bo‘yicha
Giperoksiya	Gipoksiya	Tana to‘qimalaridagi kislorod darajasi

3-7-jadval.**Affiksial antonimiya**

Atama	Antonimi	Izoh
Sog‘lom	Nosog‘lom	Fiziologik holatlar
Faoliyat	Nofoallik	Tana yoki a‘zolarning ishlash darajasi
Muvozanatli	Nomuvozanat	Holat barqarorligi
Og‘riqsiz	Og‘riqli	Klinik belgilar

3-8-jadval.**Terminologik antonimiya**

Atama	Antonimi	Izoh
Antiseptik	Septik	Yara, infeksiya oldini olish
Yallig‘lanish	Sog‘ayish, tiklanish	Patologik va fiziologik holat

Demak, sinonimiya, antonimiya hodisasi umumiy adabiy lug‘atdagi o‘xshash jarayonlardan farq qiladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Bobning to‘rtinchi bobi **“O‘zbek tili tibbiy birliklarining leksikografik talqini masalalari”**ga bag‘ishlanib, uch bo‘limdan iborat. Birinchi bobi **“O‘zbek tili tibbiy lug‘atlarining shakllanish tarixi va taraqqiyoti”** deb nomlanadi. Sharqda tibbiy lug‘atchilik tarixi juda qadimiy va boydir. Hind, Xitoy hamda Fors va Arab mamlakatlari tibbiy lug‘atchiligi kabi turli taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan. Ibn Sino (Avicenna)ning **“Al-Qonun fi-t-Tibb”** (Tib qonuni) asari tibbiy lug‘atchilikda muhim manba bo‘ldi. Arab tilidagi tibbiy lug‘atchilik tibbiyot ilmida ko‘plab yangi atamalar va tushunchalarni kiritgan. G‘.Abdurahmonov va S.Mutallibovlar tahriri ostidagi **“Devoni lug‘otit turk”** (1967) indeks-lug‘atida o‘zbek tilida kasallikka oid bir necha birliklarni keltirishimiz mumkin. Botirbek Hasan tahriri ostida nashr etilgan **“Arabcha-o‘zbekcha”** boshlang‘ich lug‘atda ham arab tilidagi kasallik tushunchasini ifodalab kelgan leksemalarning o‘zbek tilidagi ma‘nolari keng yoritib berilgan. A.Navoiy asarlarida qo‘llanilgan tibbiyotga oid birliklarni ikki guruhga ajratib o‘rganishimiz mumkin: 1) sof o‘zbekcha-turkiy tibbiyotga oid birliklar; 2) tojikcha-forsiy va arabchaga oid tibbiy birliklar. U.Ubaydullayevaning **“Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostoni terminlarining lingvo-kognitiv tahlili”** mavzusidagi dissertatsiyasida tibbiy birliklar izohga tortiladi. Dostonda jami 45 ta tibbiyotga aloqador termin qo‘llangan. **“Boburnoma”**da 47 ta tibbiy termin tahlilga tortilgan. Davolash usullari, jarrohlik amaliyotining o‘ziga xos jihatlari yoritilgan.

Asrlar silsilasidan o‘tib kelayotgan lug‘atchilik qator rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tgan bo‘lib, ulardan biri jadid lug‘atchiligi hisoblanadi. O‘zbek matbuotida (gazeta, risola) sog‘liqni saqlash bo‘yicha maqolalarda xalq tiliga yaqin tibbiy atamalar ishlatilgan. Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy, Is‘hoqxon Ibrat, Elbek kabi jadid adabiyotining yetuk vakillari tomonidan yaratilgan lug‘at namunalarida ham tibbiy birliklarning lug‘aviy tavsiflari keng yoritib berilgan. Tibbiy terminlar haqida ma‘lumot beruvchi asosiy manbalar ensiklopedik lug‘atlardir. **“Tibbiyot qomusiy lug‘ati”** da hozirgi o‘zbek tibbiyot amaliyotida keng qo‘llanayotgan ko‘plab terminlar berilgan.

Tibbiyotga oid so‘nggi yillarda nashr qilingan lug‘atlarga ikki jildli **“Tibbiy terminlar ensiklopedik lug‘ati”**ni keltirish mumkin. Tibbiyot terminlari so‘zlashgichlar tarkibida ham keltirilgan. **“Ruscha-o‘zbekcha meditsina so‘zlashgich”**da tibbiyot sohasidagi ish yuritishga oid ko‘plab hujjatlar o‘zbek tilida izohlangan.

Tibbiy terminlar tarjima lug‘atlarida ham izohlangan. Bu lug‘atlar tibbiy terminlarning ma‘nosini va ulardagi semantik aloqadorlikni o‘rganishda asosiy manba vazifasini o‘taydi. Xususan, **“Salomatlik”** ensiklopediyasida 1345 ta, **“Ruscha-lotinch-o‘zbekcha tibbiy terminlar izohli lug‘ati”** da 9816 ta, **“Katta tibbiyot o‘quv lug‘ati”** da 4410 ta, **“Tibbiyot ensiklopediyasi”** da 2262 ta tibbiy termin izohlangan. Sho‘ro davrida asosan tibbiyot lug‘atlari rus tilida yaratildi. Rus tilidagi tibbiy atamalar asosida o‘zbekcha terminologiya yaratildi. Ko‘p hollarda so‘zlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri rus tilidan o‘zlashtirildi (masalan, **“appenditsit”**, **“gripp”**).

O‘zbek tilidagi tibbiy lug‘atlarning hajmi va sifati ortdi, rasmiy nashrlar soni ko‘paydi.

O‘zbek tili rasmiy davlat tili maqomini olgach, tibbiy terminlarni o‘zbekchalashtirish va milliy atamalar bazasini yaratish ishlari jadallashdi. Ilmiy izlanishlarimiz doirasida o‘zining lug‘atga olingan terminlar ko‘lami va izoh hamda tarjimalarning ilmiyligi bilan ajralib turadigan bir qator lug‘atlarni tahlilga tortishni ma’qul topdik.

Usmanxodjayev A., Najmiddinova O., Murodova M. “Mo‘jaz tibbiy lug‘at” (1992); Usmanxodjayev A., Kosimova Z.T. Russko-uzbekskiy medisinskiy razgovornik (1993); Usmanxodjayev A., Maxmud M., Turaxanova M.S., Xamroyev M. “O‘zbek xalq tabobati atamalarining izohli lug‘ati” (2005); Usmanxodjayev A., Basitxanova E.I., Nazirov P.X., Turaxanova M.S. “Tibbiy terminlar ensiklopedik lug‘ati” (2009). Bu borada A. Qosimovning to‘rt jildli “Tibbiy terminlar izohli lug‘ati” tom ma’noda o‘zbek tibbiy terminologiyasi va terminografiyasida fundamental asar sifatida tan olindi. Endilikda tibbiy atamalarni tezkor izlash, ularning izohi, tarjimasini, lotincha yoki inglizcha muqobillarini aniqlash mumkin bo‘ldi. Onlayn tibbiy lug‘atlar nafaqat statik ma’lumot manbayi sifatida, balki interaktiv o‘quv vositasi sifatida ham xizmat qilmoqda. Ayrim platformalarda tibbiy terminlarga oid rasm, video, audio talaffuzlar, klinik izohlar va amaliy misollar keltirilgan bo‘lib, bu ularning o‘quv jarayonidagi ahamiyatini yanada oshiradi. Xususan, o‘zbek tilidagi tibbiy lug‘atlar sohasida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Raqamli lug‘atlar, elektron darsliklar, mobil ilovalar ko‘rinishida yaratilgan vositalar tufayli tibbiy terminologiyaning o‘zbek tilida standartlashuvi va ommalashuvi jadallashdi.

Bobning ikkinchi bo‘limi **“O‘zbek tilidagi tibbiy birliklarining izohli lug‘atlarda aks etishi”** deb nomlanadi. O‘zbek tilida tibbiy birliklarning mustaqil ravishda shakllanishi va izohli lug‘atlarga kiritilishi milliy tilni ilmiy sohada rivojlantirishning muhim qismidir. Mustaqillikdan so‘ng tibbiy terminlarni o‘zbekchalashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar, jumladan, izohli lug‘atlarning nashr etilishi, tibbiy bilimlarning milliy tilga moslashtirilishida asosiy o‘rin tutadi. Bu lug‘atlar nafaqat tibbiyot mutaxassislariga, balki tibbiyot sohasida ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilarga, tarjimonlarga va talabalar uchun ham muhim manbadir. O‘zbek tilida qo‘llaniladigan tibbiy birliklarni o‘zbek tilining izohli lug‘atida berilishi, ularning til xususiyatiga qarab tasniflarini dissertatsiyada keng izohlashga harakat qildik.

O‘TILda mavjud tibbiy terminlarning tasnifi bo‘yicha tahlilini ko‘rib o‘tamiz: 5 jildli O‘TILda berilgan tibbiyotga oid birliklarning genetik tahlili: o‘z qatlam terminlari – 14%; arab: 2%; fors: 1,4%; lotin: 13,2%; yunon: 37,6%; ingliz: 1,4%; fransuz: 1,8%; italyan: 0,4%; nemis: 1,07%; rus: 0,7%; qismlaridan biri boshqa, ikkinchisi boshqa tilga oid murakkab genetik xususiyatga ega birliklar: 4,7%.ni tashkil qiladi. O‘zbek tilining lug‘at fondida iste’molda bo‘lgan tibbiy terminlar orasida rang bilan aloqador lug‘aviy birliklar ma’lum foizni tashkil etadi. Rang bilan aloqador tibbiy terminlarning yuzaga kelishida, dastavval kasallikning klinik belgilari, ko‘rinishi nazarda tutilsa, so‘ngra kasallikning yuzaga kelishi, davri, oqibati bilan bog‘liq xalq qarashlari muhim o‘rin tutadi. (“4.1-jadvalga qarang”)

4.1. – jadval

Rang bilan bog‘liq xalqchil tibbiy atamalar

Xalqchil atama	Rang bilan bog‘liq so‘z	Ma‘nosi (tibbiy atama)
Sariq kasal(i)	Sariq	Jaundice (sariqlik, gepatit) – teri va ko‘zlar oqsining sarg‘ayishi
Qizamiq	Qizil	Measles – virusli yuqumli kasallik, terida qizil toshmalar
Qora o‘lat	Qora	Plague – o‘ta xavfli yuqumli kasallik, tarixda o‘lim ko‘p bo‘lgan
Ko‘kyo‘tal	Ko‘k	Whooping cough (pertussis) – kuchli, qattiq yo‘tal bilan kechadigan kasallik
Oq dog‘	Oq	Vitiligo – terida pigment yo‘qolib, oq rangli dog‘lar paydo bo‘ladi
Qora dog‘	Qora	Melanoma yoki boshqa pigmentli toshma yoki teri nuqsonlari
Sariq ko‘z	Sariq	Jaundice – ko‘z oqining sarg‘ayishi (gepatit yoki jigar muammosi belgisi)
Qizil shamollash	Qizil	Yengil shamollash, isitma va burun oqishi bilan kechadigan holat (ba‘zida qizg‘ish ko‘z, burun)
Ko‘karish	Ko‘k	Bruise – tanadagi qon quyilishi natijasida paydo bo‘lgan ko‘kimsimon dog‘
Qizilo‘ngach	Qizil	(lotincha “esophagus” + qizil) – bu klinik atama emas, ammo ba‘zida og‘zaki nutqda yutishdagi og‘riq yoki yo‘talda ishlatiladi

Bobning uchinchi bo‘limi **“Tibbiy birliklar lug‘ati tuzilishining asosiy tamoyillari va vazifalari”** deb nomlanadi. Hozirgi kunda fanning har qanday sohasini, jumladan, tibbiyot sohasini ham maxsus terminologik lug‘atlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Xato, noto‘g‘ri tarjima inson hayotiga zomin bo‘lishi mumkin bo‘lgan tibbiyotda termin elementlarini tartibga solish va leksikografik qayta ishlash masalasi ayniqsa dolzarbdir. Hozirgi vaqtda ingliz tili, rus tili leksikografiyasida katta izohli lug‘atlarga asoslangan ko‘plab tibbiy bir tilli ma‘lumotnomalar mavjud. Lingvistika sohasida olib boriladigan tadqiqotlar yangi tibbiy atamalarni yaratish va lug‘atlar yaratishda quyidagi muhim jihatlarni ta‘minlaydi:

- Termin yaratishning nazariy asoslari;
- Terminologik standartlashtirish;
- Tarjima va ekvivalentlik muammolari;
- Korpus lingvistikasi va atamalarni frekvens tahlili;
- Sotsiolingvistik jihatlar.

Tibbiy atamalarning keng jamoatchilik tomonidan qabul qilinishi ularning sotsiokultural mosligi bilan chambarchas bog‘liq. Lingvistika bu jihatni o‘rganish orqali atamalarning oddiy foydalanuvchilar tomonidan tushunilishini ta‘minlovchi yondashuvlarni taklif etadi. Mutaxassislarning tavsiyalarini o‘rganib va ilgari nashr etilgan bir qator lug‘atlarni tahlil qilib, biz lug‘atimizga quyidagi bo‘limlarni kiritishni lozim topdik: mundarija, so‘z boshi, lug‘at tuzish tamoyillari, lug‘atdan foydalanish qoidalari, korpus, lug‘at, ilovalar.

So‘zboshida lug‘at yaratilishining asosiy sabablari sanab o‘tiladi va ko‘rib chiqiladi. Ushbu lug‘atning boshqa shunga o‘xshash lug‘atlardan asosiy farqlari ham

keltirilgan. “Lug‘at tuzish tamoyillari” bo‘limida lug‘at tuzishning asosiy usullari va bosqichlari bayon etilgan. Foydalanish qoidalarida lug‘at qismlarining tarkibi, ularning o‘zaro bog‘liqligi tavsiflanadi. (“4.2-jadvalga qarang”)

4.2. – jadval

Har bir lug‘aviy birlik quyidagicha shaklda berilishi tavsiya etiladi:

Termin: Anemiya,

Birlik: Kamqonlik

So‘z turkumi: ot

Talaffuzi: [a-ne-mi-ya]

Soha: Tibbiyot, gematologiya

Ta‘rifi: Qonda gemoglobinning kamayishi bilan xarakterlanuvchi kasallik.

Sinonimi: Qon kamligi

Etimologiyasi: yunoncha “anaimia” – “qonsizlik”

Lug‘at korpusi mavzuviy bo‘limlar va kichik bo‘limlardan iborat bo‘lib, ular foydalanuvchilarning tibbiy atamalarni tizimli va maqsadga muvofiq izlab topishlarini osonlashtiradi. Har bir tematik bo‘lim muayyan sohaga, masalan, anatomiya, fiziologiya, farmakologiya, infeksiyon kasalliklar, jarrohlik, psixiatriya, yoki xalq tabobatiga oid terminlarni qamrab oladi. Bo‘limlar ichida esa kichik bo‘limlar orqali aniq yo‘nalishlar, masalan, yurak-qon tomir tizimi, asab tizimi, ovqat hazm qilish tizimi kabi yanada batafsil ajratiladi.

Bunday strukturalashtirish nafaqat terminlarning mavzuga qarab guruhlanishini ta‘minlaydi, balki ularning semantik va funksional aloqadorligini ham yoritadi. (“4.2-jadvallarga qarang”)

4.2-jadval

1-BO‘LIM: ANATOMIYA

Izoh: Inson tanasining tuzilishi, a‘zolar, ularning shakli va joylashuvi bilan bog‘liq terminlar.

1.1. Mushak va suyak tizimi

Term	Ta‘rifi	Lotincha	Sinonimi
Femur	Son suyagi, inson tanasidagi eng uzun suyak	<i>Femur</i>	Son

1.2. Ichki a‘zolar

Term	Ta‘rifi	Lotincha	Sinonimi
Buyrak	Organizmدا suyuqlik va toksinlarni chiqarishga javobgar juft a‘zo	<i>Ren</i>	Nefros

2-BO‘LIM: KASALLIKLAR

Izoh: Tana tizimlaridagi patologik holatlar, ularning nomlari va turlari.

2.1. Yurak-qon tomir kasalliklari

Term	Ta‘rifi	Lotincha/inglizcha	Sinonimi
Gipertoniya	Qon bosimining me‘yordan yuqori bo‘lishi	<i>Hypertension</i>	Yuqori bosim

2.2. Oshqozon-ichak kasalliklari

Term	Ta‘rifi	Lotincha/inglizcha	Sinonimi
Gastrit	Oshqozon shilliq qavatining yallig‘lanishi	<i>Gastritis</i>	Oshqozon yallig‘lanishi

3-BO‘LIM: DIAGNOSTIKA VA DAVOLASH

Izoh: Tibbiy tekshiruv usullari, tashxislash va davolashga oid terminlar.

3.1. Diagnostik usullar

Term	Ta'rifi	Lotincha/inglizcha	Izoh
Rentgen	Ichki organlarni tekshirish uchun nurlanishdan foydalaniladigan usul	<i>Roentgenographia</i>	Ko'p hollarda suyaklar uchun

4-BO'LIM: XALQ TABOBATI (etnofarmakologiya)

Izoh: Mahalliy an'analarda qo'llanilgan davolash vositalari va usullari.

4.1. O'simlik vositalari

Term	Ta'rifi	Mahalliy nomi	Ilmiy nomi
Qora sedana	Immunitetni kuchaytiradi, yog'i davolovchi xususiyatga ega	Qora sedana	<i>Nigella sativa</i>

5-BO'LIM: INFEKSION KASALLIKLAR VA ULARGA OID TIBBIY BIRLIKLAR

Izoh: Bu bo'limda virusli, bakterial, parazitlar va boshqa infeksiyon kasalliklar hamda ular bilan bog'liq tibbiy terminlar (patogenlar, simptomlar, tashxis, davolash vositalari) beriladi.

1. Kasalliklar

Term	Ta'rifi	Lotincha/inglizcha	Sinonimi
Tif	Yuqori harorat, holsizlik, ichak faoliyatining buzilishi bilan kechuvchi infeksiyon kasallik	<i>Typhus abdominalis</i>	Qorin tifi
Qizamiq	Virusli kasallik, toshma, isitma va yo'tal bilan kechadi	<i>Morbilli</i>	

2. Patogenlar (yuqtiruvchi omillar)

Term	Ta'rifi	Lotincha/inglizcha	Izoh
Virus	Tirik hujayrada ko'payadigan mikroskopik zarracha	<i>Virus</i>	Bakteriyalardan farqli
